



Qo'llanmani ko'rish uchun
QR kodini skanerlang.



FOYDALANUVCHI QO'LLANMASI

SOVUTGICH VA MUZLATGICH



O'rnatishni boshlashdan oldin quyidagi yo'l-yo'riqlarni diqqat bilan o'qib chiqing. Ushbu amallar jihozning to'g'ri va xavfsiz o'rnatilishini kafolatlaydi. O'rnatib bo'lgandan so'ng bu yo'l-yo'riqlarni ma'lumot sifatida jihoz yaqinida qoldiring.

O'ZBEKCHA



MFL71798807
Rev.04_120825

www.lg.com

Copyright © 2021-2025 LG Electronics. Barcha huquqlar himoyalangan.

MUNDARIJA

Ushbu qo'llanmada siz xarid qilgan
rusumga taalluqli bo'lmagan tasvirlar
yoki tarkib bo'lishi mumkin.

Ushbu qo'llanma ishlab chiqaruvchi
tomonidan qayta ko'rib chiqilishi
mumkin.

XAVFSIZLIK KO'RSATMALARI

FOYDALANISHDAN AVVAL BARCHA KO'RSATMALARNI O'QIB CHIQING	4
OGOHLANTIRISH.....	4
DIQQAT	10

O'RNATISH

O'rnatishdan avval	13
Sovutgich va muzlatgich eshigini chiqarib olish	14
Suv liniyasiga ulash.....	16
Tekislash va eshikni tenglashtirish	18
Qurilmani yoqish.....	19
Qayta joylashtirish uchun jihozni ko'chirish	19

ISHLATISH

Foydalanishdan avval	21
Mahsulot xususiyatlari	24
Boshqaruv paneli	28
Muz va suv taqsimlagichi	31
Avtomatik muz tayyorlagich	33
InstaView.....	36
Door-in-Door (eshikdagi eshik)	37
Tortmasi	37
Tokcha	38
Eshik savatchasi.....	39

AQLLI FUNKSIYALAR

LG ThinQ ilovasi.....	40
Smart diagnostika	42

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

Tozalash	43
Suv filtri	44
Dezodorant	46

NOSOZLIKLARNI BARTARAF ETISH

Servis markaziga qo'ng'iroq qilishdan avval.....47

XAVFSIZLIK KO'RSATMALARI

FOYDALANISHDAN AVVAL BARCHA KO'RSATMALARNI O'QIB CHIQING

Quyidagi xavfsizlik ko'rsatmalari kutilmagan xavflar hamda jihozdan ehtiyotsizlik bilan yoki noto'g'ri foydalanish oqibatida kelib chiqadigan zararlarning oldini olishga mo'ljallangan.

Ushbu ko'rsatmalar quyida ko'rsatilganidek **“OGOHLANTIRISH”** va **“DIQQAT”** belgilari bilan qismlarga ajratilgan.

Xavfsizlik xabarlarlari



Ushbu belgi xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan holat va amallarni bildiradi. Mazkur belgi bilan ajratilgan qismni ehtiyotkorlik bilan o'qing va xavfning oldini olish uchun ko'rsatmalarga amal qiling.



OGOHLANTIRISH

Bu belgi ko'rsatmalarga amal qilmaslik jiddiy jarohat yoki o'limga sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.



DIQQAT

Bu belgi ko'rsatmalarga amal qilmaslik yengil jarohat yoki mahsulotga zarar yetishiga sabab bo'lishi mumkinligini bildiradi.

OGOHLANTIRISH



OGOHLANTIRISH

Mahsulotdan foydalanish asosida portlash, yong'in chiqish, o'lim, elektr zarbasi yoki jarohatning oldini olish uchun asosiy ehtiyotkorlik choralariga amal qiling:

Texnik xavfsizlik

- Ushbu jihoz jismoniy, sezgi yoki aqliy qobiliyati cheklangan, foydalanish tajribasi va bilimi kam shaxslar (jumladan, bolalar) tomonidan foydalanish uchun mo'ljallanmagan. Agar ularning xavfsizligi uchun javobgar biror shaxs jihozdan foydalanishda ularni nazorat qilib tursa yoki ko'rsatma berib tursa, bunday shaxslar jihozdan foydalanishlari mumkin. Bolalarni jihoz yonida nazoratsiz qoldirmang.
- Bu jihoz uy xo'jaligida va quyidagilar kabi shunga o'xshash holatlarda foydalanish uchun mo'ljallangan:
 - do'konlar, ofislar va boshqa ishxonalardagi xodimlar uchun oshxona hududlarida;
 - fermerlik uylarida va mehmonxonalar, motellar va boshqa turar-joy ijarasi tipidagi joylarda mijozlar tomonidan;
 - yotoqxona va nonushta berishga mo'ljallangan joylarda;
 - umumiy ovqatlanish oshxonalari va boshqa shunga o'xshash joylarda.
- Ushbu sovutgich jihozi ichki qurilgan jihoz sifatida foydalanish uchun mo'ljallanmagan.
- Ushbu jihoz ishlash vaqtida tebranuvchi dengiz kemalari yoki avtofurgonlar kabi ko'chma yoki mobil o'rnatish joylarida foydalanish uchun mo'ljallanmagan.



Bu belgi e'tiborsiz qoldirilgan hollarda uchqunlashi va yong'inga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan yonuvchan materiallar haqida ogohlantiradi.

- Bu jihoz tarkibida oz miqdordagi izobutan sovutish vositasi (R600a) mavjud, biroq u yonuvchan hamdir. Jihozni tashishda yoki o'rnatishda uning sovitish sxemasiga shikast yetkazmaslik uchun ehtiyotkorlikka rioya qilish talab etiladi.
- Jihozda qo'llanilgan sovutuvchi modda yoki izolyatsion gazni chiqitga chiqarishda maxsus tartib amal qiladi. Ularni chiqitga chiqarishdan avval servis markazi agenti yoki sohaning malakali ustasi bilan maslahatlashing.

- Jihozning sovitish sxemasiga zarar yetkazmang.
- Agar elektr shnuri shikastlangan yoki rozetkaning teshigi bo'shab qolgan bo'lsa, u almashtirilishi kerak. Xavfning oldini olish uchun shnurni ishlatmang hamda vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.
- Jihozning orqa korpusiga ko'chma ko'p tirqishli rozetkalar yoki ko'chma elektr ta'minot jihozlarini joylashtirmang.
- Namlik yoki changni yaxshilab tozalab tashlagandan so'nggina elektr vilkasini rozetkaga ulang.
- Jihozni tokdan uzishda elektr kabelidan tortmang. Doim vilkani mahkam ushlang va rozetkadan to'g'ri yo'nalishda tortib chiqaring.
- Jihozning korpusida yoki ichki tuzilmasida o'rnatilgan shamollatish teshiklarining tiqilib qolishiga yo'l qo'ymang.
- Jihoz ichida yonuvchan suyuqlikli aerosol idishlari kabi portlovchi moddalarni saqlamang.
- Jihozni tashish chog'ida uni tortib yoki itarib engashtirmang.
- Jihozni joylashtirganda elektr shnurining tiqilib qolmaganligi yoki shikastlanmaganligiga ishonch hosil qiling.
- Muzdan tushish jarayonini tezlatish uchun mexanik qurilma yoki boshqa vositalardan foydalanmang.
- Jihozning ichki tomonini quritish uchun soch qurituvchi uskunadan foydalanmang va badbo'y islarni ketkazish uchun jihoz ichiga sham tiqmang.
- Oziq-ovqat mahsulotlari tortmalarida ishlab chiqaruvchi tavsiya qilgan vositalar turiga mos bo'lmagan elektr jihozlarni saqlamang.
- Jihozni siljitayotganda qo'l yoki oyoq kabi tana a'zolarining qisilib qolmasligiga ishonch hosil qiling.
- Jihozning ichki yoki tashqi qismlarini tozalashdan avval elektr shnurini uzib qo'ying.
- Jihozni tozalash uchun uning ichiga yoki tashqarisiga hech qachon suv yoki yonuvchan moddalarni (tish pastasi, spirt, eritgich, benzin, oson alangalanuvchi modda, abraziv material va h.k.) purkamang.
- Jihozni hech qachon dag'al yuzali yoki metall materialdan qilingan cho'tka, latta yoki mochalka bilan tozalamang.

- Faqat LG Electronics servis markazining malakali mutaxassisigina jihozni qismlarga ajratishi, ta'mirlashi yoki o'zgartirishi zarur. Agar jihozni boshqa joyga ko'chirib o'rnatadigan bo'lsangiz, LG Electronics mijozlarni qo'llab quvvatlash markaziga murojaat qiling.

Yong'in va yonuvchan materiallar xavfi

- Agar shunday oqish holati yuzaga kelgan bo'lsa, jihoz atrofida ochiq alanga yoki ehtimoliy isitish manbalari bo'lishiga yo'l qo'ymang va jihoz turgan xonani bir necha daqiqa davomida shamollating. Agar sovituvchi modda oqishi kuzatilsa, yonuvchan gazlarning havodagi aralashmasi yuzaga kelishining oldini olish uchun, jihoz foydalanilayotgan xona o'lchamlari undagi sovituvchi modda miqdoriga mos bo'lishi zarur. Jihoz ichidagi R600a sovituvchi moddasining har 8 grammiga xonada 1 m² joy bo'lishi zarur.
- Jihoz naychalaridan sovituvchi moddaning oqishi yong'in yoki portlashni keltirib chiqarishi mumkin.
- Aynan sizning jihozingizdagi sovituvchi modda miqdori jihoz ichidagi identifikatsiya yorlig'ida ko'rsatilgan.

O'rnatish

- Bu jihozni ikki yoki undan ortiq kishi mahkam ushlagan holda joyidan ko'chirishi lozim.
- Jihozni qattiq va tekis polga o'rnatang.
- Jihozni nam va changli joyga o'rnatmang. Jihozni tashqariga yoki to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri, shamol yoki yomg'ir tegadigan, harorat muzlashgacha boradigan joylarga o'rnatmang yoki saqlamang.
- Jihozni quyosh nuri to'g'ridan-to'g'ri tushadigan joyga qo'ymang va plita yoki isitkich kabi qizdiruvchi jihozlardan chiqadigan issiqlik ta'sirida qoldirmang.
- Jihozni o'rnatishda orqa tomonini ochilib qolishidan ehtiyot bo'ling.
- Jihozni uning elektr kabeli tarmoqdan oson uziladigan joyga o'rnatang.
- Jihoz eshigini o'rnatishda yoki yechishda uning qulab ketishiga yo'l qo'ymang.

- Jihoz eshigini o'rnatishda yoki yechishda elektr kabelining qisilib qolishi, ezilishi yoki shikastlanishidan ehtiyot bo'ling.
- Elektr kabeli sanchqisi yuqoriga yo'nalib qolishi yoki jihazning elektr kabeli sanchqisiga tiralib qolishidan saqlanang.
- Elektr kabeli sanchqisiga sanchqi adapteri yoki boshqa qurilmalarni ulamang.
- Elektr kabelini almashtirmang yoki uzaytirmang.
- Rozetka yerga to'g'ri uzatilganligiga, elektr kabelidagi yerga ulash mixchasi shikastlanmaganligiga va uning elektr tarmog'idan uzib qo'yilmaganligiga ishonch hosil qiling. Yerga ulash bo'yicha batafsil ma'lumot uchun LG Electronics mijozlarni qo'llab quvvatlash markaziga murojaat qiling.
- Bu jihazning elektr shnuri uskunani yerga ulash simi va vilkasi bilan jihozlangan. Elektr shnurining vilkasi barcha mahalliy qonun-qoidalarga muvofiq tarzda o'rnatilgan va yerga ulangan rozetkaga ulanishi shart.
- Biror shikastlanish belgisi bo'lgan jihazni ishga tushirmang. Agar bunga shubha qilsangiz, dilingizga murojaat qiling.
- Qadoq materiallari (plastik paketlar va penoplast)ni bolalardan uzoqroqda chiqitga chiqaring. Qadoq materiallari bo'g'ilib qolishga sabab bo'lishi mumkin.
- Jihazni quvvat kabeliga (o'rnatilgan) ega bo'lmagan ko'p rozetkali adapterga ulamang.
- Bu jihaz alohida saqlagichga ega bo'lgan maxsus ajratilgan elektr liniyasiga ulanishi kerak.
- Mos tarzda yerga ulanmagan ko'p teshikli rozetkaga (ko'chma) ulamang. Mos tarzda yerga ulangan ko'p teshikli rozetkadan (ko'chma) foydalanilganda ko'rsatilgan nominal tok kuchiga yoki undan balandroq tok kuchiga mo'ljallangan ko'p teshikli rozetkadan foydalaning va bu rozetkadan faqat jihazning o'zi uchun foydalaning.

Ishlatish

- Jihozda oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashdan boshqa maqsadlarda (tibbiy yoki tajriba materiallari saqlash yoxud yetkazib berishda) foydalanmang.
- Agar jihozning elekt qurilmalari ichiga suv kirib ketadigan bo'lsa, elektr kabeli sanchqisini tarmoqdan uzing va LG Electronics mijozlar uchun axborot markaziga murojaat qiling.
- Qattiq momaqaldiroq yoki chaqmoq paytida yo uzoq muddat foydalanishi ko'zda tutilmagan holatlarda jihozning elektr kabeli sanchqisini tarmoqdan uzib qo'ying.
- Ho'l qo'lingiz bilan elektr vilkasiga yoki jihozning tugmalariga tegmang.
- Elektr kabelini haddan ortiq bukmang yoki ustiga og'ir buyum qo'ymang.
- Agar jihozdan g'alati ovoz, hid yoki tutun chiqayotganini sezsangiz, darhol elektr kabeli sanchqisini tarmoqdan uzing va LG Electronics mijozlarni qo'llab quvvatlash markaziga murojaat qiling.
- Jihozning sovuq chiqaradigan joyiga, orqa paneliga yoxud issiqlik chiquvchi panjarasiga qo'lingizni yoki metal buyumlarni qo'ymang.
- Jihozning orqa paneliga ortiqcha kuch yoki zarba ishlatmang.
- Jihoz eshigini ochish yoki yopishda atrofda yurgan bolalarga ehtiyot bo'ling. Eshik bolaga jarohat yetkazishi yoki shikastlashi mumkin.
- Bolalarning jihoz ichiga qamalib qolish xavfidan ehtiyot bo'ling. Jihoz ichiga qamalib qolgan bola dimiqib qolishi mumkin.
- Jihoz ichiga uy hayvonlari yoki boshqa jonzotlarni solmang.
- Jihoz ichiga og'ir yoki mo'rt buyumlarni, ichida suyuqlik bor idishlarni, yonuvchan moddalarni, oson alangalanuvchan buyumlarni (sham, shamchiroq kabilarni) va qizdiruvchi uskunalarni (plita, isitkich kabilarni) qo'ymang.
- Jihoz ichiga hech qanday elektr uskunasi (isitkich yoki mobil telefoni kabilarni) solmang.
- Agar gaz (izobutan, propan, tabiiy gaz va h.k.) chiqayotgan bo'lsa, jihozga yoki elektr kabeli sanchqisiga tegmang va darhol xonani shamollating. Bu jihoz sovutuvchi gazdan (izobutan, R600a)

foydalanadi. Garchi undagi gaz miqdori juda oz bo'lsa-da, u baribir yonuvchandir. Jihozni tashish, o'rnatish yoki undan foydalanish paytida undan gaz chiqsa va uchqun chiqishi kuzatilsa, bu yong'in, portlash yoki tan jarohatlariga olib kelishi mumkin.

- Jihoz yaqinida tez alanganuvchan yoki yonuvchan moddalardan (efir, benzol, spirt, boshqa kimyoviy moddalar, siqilgan suyuq gaz, yonuvchan aerosol, hasharotlarga qarshi purkaluvchi vosita, havo tozalagich, pardozi vositasi va h.k.) foydalanmang yoki ularni saqlamang.
- Bu jihoz yerga ulanishdan funksional maqsadlarda foydalanadi.
- Faqat ichimlik suvi ta'minotiga ulang.
 - Suv ta'minotiga ulangan bo'lsa, faqat ichimlik suvi ta'minotiga ulang.
- Faqat ichimlik suvi quying.
 - Muz tayyorlagich yoki dispenser suvdanidan foydalansangiz, uning faqat ichimlik suvi bilan to'ldirilishiga ishonch hosil qiling.

Chiqitga chiqarish

- Jihozni tashlab yuborayotganda uning tokchalarini va savatchalarini joyida qoldirgan holda, eshik qistirmasini olib tashlang va bolalarni jihozdan uzoq tuting.

DIQQAT

DIQQAT

Kichik shaxsiy jarohatlarning xavfini kamaytirish, mahsulotning noto'g'ri ishlashi yoki mulkka shikast etishining xavfini kamaytirish uchun asosiy dastlabki ehtiyot choralari ko'rilishi kerak, jumladan, quyidagilar:

O'rnatish

- Qutidan ochilganidan keyin, jihozni tashish vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shikastlar yo'qligini tekshiring.

- Sovutgich modda oqimini to'liq ishlashini ta'minlashi uchun kamida 3-4 soat kuting.
- Polga zarar yetkazmaslik uchun asbobni nozik pollar ustida ehtiyotkorlik bilan harakatlantiring.

Ishlatish

- Muzlatgich bo'lmasidagi muzlagan oziq-ovqat mahsulotlari yoki uning metal qismlariga nam yoki xo'l qo'l bilan teginmang. Bu sovuq urishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Harorati muzlash nuqtasidan pastroq haroratga tushadigan muzxona, tokchalar yoki muz chelagiga shisha idishlar, butilka yoki banka solmang (ayniqsa ichida gazli ichimlik bo'lsa).
- Jihoz eshigining old tomonidagi toblangan shisha yoki polkalar ta'sir natijasida shikastlanishi mumkin. Agar u sinsa, unga qo'llaringiz bilan tegmang.
- Jihoz eshiklari, kamerasi yoki tokchalariga osilmang yoki ustiga chiqmang.
- Eshik savatchalarida ortiqcha miqdordagi suv idishlari yoki likopchalar uchun idishlarni saqlamang.
- Jihoz eshigini ortiqcha kuch ishlatib ochib yopmang.
- Agar jihoz eshigining oshiq-moshig'i shikastlangan yoki noto'g'ri ishlayotgan bo'lsa, uni ishlatishdan to'xtating va vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.
- Uy hayvonlari elektr kabeli yoki suv chiqadigan rezina quvurni kemirishiga yo'l qo'ymang.
- Muzlagan oziq-ovqat mahsulotlarini muzlatgich bo'lmasidan olinishi bilanoq iste'mol qilmang.
- Jihoz eshigini yoki eshikdagi eshikni ochib yopganda qo'l yoki oyog'ingiz qisilib qolmasligiga ishonch hosil qiling.

Texnik xizmat ko'rsatish

- Agar jihozga texnik xizmat ko'rsatmaydigan ichki LED-chiroq o'rnatilgan bo'lsa, uning qopqog'i yoki LED-chiroqning o'zini tuzatish

yoki ta'mirlash maqsadida aslo chiqarib olmang. LG Electronics mijozlar uchun axborot markaziga murojaat qiling.


- Shisha tokchalar yoki qopqoqlarni sovuqligida issiq suv bilan tozalamang. Harorat birdan o'zgarishi tufayli ular darz ketishi mumkin.
- Polkalarni to'ntarilgan holda solmang. Polkalar yiqilib ketishi mumkin.
- Jihoz muzini tushirish uchun LG Electronics mijozlarni qo'llab quvvatlash markaziga murojaat qiling.
- Uzoq muddat elektr tarmog'idan tok kelmay qolgan paytda, muzlatgich bo'lmasidagi muz chelagidagi muzni olib tashlang.

O'RNATISH

Oʻrnatishdan avval

Oʻlchamlar va oraliqlar

Tegishli buyumlar bilan oraligʻi juda kichkina boʻlsa, muzlatish samarasi pasayishi va elektr xarajati ortishi mumkin. Jihozni oʻrnatishda jihozning orqa tomoni bilan devor orasida kamida 50 mm oraliq qoldiring.



-	Oʻlchami (mm)
A	913
B	1790
C	735
D	620
E	691
F	735
G	1180
H	1635

Atrof-muhit harorati

- Jihoz iqlim zonasiga bogʻliq ravishda atrof­dagi haroratlarning cheklangan diapazonida ishlashga moʻljallangan.
- Ichki haroratlarga jihoz oʻrnatilgan joyi, atrof-muhitdagi harorat, eshikning qancha ochilib-yopilishi va boshqalar taʼsir koʻrsatadi.

- Iqlim sinfini pasport taxtachasida koʻrish mumkin.

Iqlim sinfi	Atrof-muhit harorati diapazoni °C
SN (Meʼyordan past iqlim)	+10 - +32
N (Oʻrtacha iqlim)	+16 - +32
ST (Subtropikal)	+16 - +38 / +18 - +38**
T (Tropik)	+10 - +43* / +16 - +43 / +18 - +43**

* Avstraliya, Hindiston, Kenya


** Argentina

Izoh

- SN dan T gacha koʻrsatilgan moslamalar 10 °C - 43 °C atrof haroratida foydalanishga moʻljallangan.

Anjomlar

*1 Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud.



- 1 A gayka klyuchi*1
- 2 B gayka klyuchi*1
- 3 Suv filtri*1
- 4 Suv trubkasi*1
- 5 Trubka ulagichi va qisqichi*1
- 6 Trubka ulagichi va klapani*1

Sovutgich va muzlatgich eshigini chiqarib olish

Agar kirish eshigingiz jihozni olib kirish uchun juda tor bo'lsa, jihozning eshiklarini yechib oling va jihozni yon tomonlama qilib u yerdan o'tkazing.


! OGOHLANTIRISH

- Eshiklarni o'rnatish, chiqarib olishdan yoki jihozni tozalashdan avval elektr kabelini, uydagi elektr saqlagichi yoki avtomatik o'chirgichni tarmoqdan uzing. Ushbu ko'rsatmalarga amal qilmaslik o'lim, yong'in yoki tok urishiga sabab bo'lishi mumkin.


Muzlatish kamerasi eshigini chiqarib olish

- Suv ta'minot liniyasi jihozning orqa tomonidagi yuqori o'ngga ulanadi. Suv ta'minot liniyasini ajratish uchun suv ta'minot ulanishini ushlang


va astalik bilan tsanga 1 ni bosing. Qopqoq 2 ni bo'shating.



- Jihozning yuqori qismidagi sharnir qopqog'idan burama mixni chiqarib oling. Qopqoqning old qismining tagida joylashgan ilgakni yassi uchli otvertka bilan ko'taring.




- Trubka 3 ni torting. Yerga ulash simi 4 ni bo'shating. Barcha sim bog'lamlari 5 ni bo'shating.



Izoh

- Modelga bog'liq ravishda sim bog'ichlar soni farq qilishi mumkin.


- 4 Sharnir dastagi ⑥ ni soat strelkasiga qarama-qarshi yo'nalishda aylantiring. Yuqori sharnir ⑦ ni sharnir dastagi lo'kidoni ⑧ dan tepaga ko'tarib bo'shating.



⚠️ DIQQAT

- Sharnirni lo'kidonidan ko'tarib bo'shatishda eshikning oldinga qulab tushmasligi uchun ehtiyot bo'ling. Eshikni olish yoki o'rnatishda ikki yoki undan ortiq odam uni ushlab turishi tavsiya etiladi.

- 5 Muzlatish kamerasi eshigini u tag qismdagi yig'ich sharniridan bo'shagunicha ko'taring.




⚠️ DIQQAT

- Eshikni tirnamaydigan yuzaga ich tomonini yuqoriga qaratgan holda qo'ying.

Sovutkich eshigini chiqarib olish


- 1 Barcha simli tirkovchi moslamalar ① ni uzing.



Izoh

- Modelga bog'liq ravishda sim bog'ichlar soni farq qilishi mumkin.


- 2 Sharnir dastagi ② ni soat strelkasiga qarama-yo'nalishda aylantiring. Yuqori sharnir ③ ni sharnir dastagi lo'kidoni ④ dan tepaga ko'tarib bo'shating.



⚠️ DIQQAT

- Sharnirni sharnir dasdagi lo'kidonidan ko'tarib bo'shatishda eshikning oldinga qulab tushmasligi uchun ehtiyot bo'ling. Eshikni olish yoki o'rnatishda ikki yoki undan ortiq odam uni ushlab turishi tavsiya etiladi.

- 3** Sovutkich eshigini u tag qismdagi yig'ich sharniridan bo'shagunicha ko'taring.



⚠️ DIQQAT

- Eshikni tirnamaydigan yuzaga ich tomonini yuqoriga qaratgan holda qo'ying.

Sovutgich va muzlatgich eshiklarini qayta joylash


Jihoz kirish eshigidan olib kiritilganidan so'ng eshik olinishidagi tartibni teskari tarzda amalga oshirib, uning eshigini joylashtiring.

⚠️ DIQQAT

- Avval sovutkich eshigini o'rnating.

Izoh


- Suv liniyalarini qismlarga ajratish/yig'ish



- 1** Tanga **2** Trubka **3** Kiritish chizig'i **4** Qisqich
- Trubkani faqat liniyaning kiritish liniyalaridan bittasi ko'rinadigan bo'lgunicha kiriting. Uning mahkam qotirilganligiga ishonch hosil qilish uchun trubkani tortib ko'ring.

To'g'ri	
Noto'g'ri	

- Agar suv trubkasi uchi shikastlangan bo'lsa, uni o'rnatish paytida oqmasligi uchun kesib oling.



5 To'g'ri emas **6** Shikastlangan **7** Cho'zilgan

Suv liniyasiga ulash

Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud.

Suv ta'minotiga bo'lgan talablar

Suv taqsimlagichining ishlashi uchun suv bosimi 138 kPa dan 827 kPa (1,4-8,4 kgs/sm²) gacha bo'lgan sovuq suv ta'minoti talab qilinadi. Agar sovutgich suv bosimi past (138 kPa dan past) bo'lgan hududga o'rnatilsa, past bosimni kompensatsiyalash uchun kuchaytiruvchi nasosni o'rnatishingiz mumkin.

Agar sovuq suv ta'minotingizga suvni teskari osmotik filtrlash tizimi ulangan bo'lsa, suvni teskari osmotik filtrlash tizimiga bo'lgan suv bosimi kamida 138 kPa dan 827 kPa gacha (1,4-8,4 kgs/sm²) bo'lishi kerak


⚠️ OGOHLANTIRISH

- Suv liniyasiga ulash bo'yicha har qanday ishlarni bajarishdan avval jihazni rozetkadan uzib qo'ying. Bunday qilmaslik elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
- Faqat sovuq suv ta'minot liniyasiga ulang. Bunday qilmaslik suv filtrining noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin. Uy kanalizatsiya

tarmog'idagi suv zarbasi (trubalardagi suvning urishi) jihoz qismlarning shikastlanishiga va oqibatda suvning oqib ketishi yoki toshishiga olib kelishi mumkin.

- Faqat ichimlik suv ta'minotiga ulang.
- Jihozga suv ulashda yangi shlangdan foydalaning. Eski, eskirgan yoki ishlatilgan shlanglardan foydalanmang.
- Suv liniyasiga ulash ishlari faqat malakali santexnik tomonidan va suv sifatini boshqaruvchi mahalliy qonunlar va tartiblarga ko'ra amalga oshirilishi kerak.

trubkaga surib kiritilish vaqtida tuba mahkam ushlab turilishi kerak.




Izoh

- Ushbu suv liniyasini o'rnatish ishlari jihozga berilgan kafolat bilan qamrab olinmaydi.

Jihozga suv ulash

- 1 Jihozning orqa tarafidagi bo'yinbog'li metall rezballi gaykani bo'shatib oling va uni suv trubkasining bir uchiga joylashtiring.
- 2 Suv trubkasini suv kiritish klapaniga mahkam surib kirgazing va bo'yinbog'li gaykani qotiring.




Suv kraniga ulash

Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud.

- 1 Suv trubkasini aksessuarlarda berilgan kran ulagichining teshigiga surib kirgazing. Ulagich

- 2 Uni kranga burab qotirishdan avval rezina shaybaning kran ulagichining ichki tomoniga o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.
 - Agar kran fittingi birga berilgan ulagich rezba o'lchamiga mos kelmasa, alohida ulagich yoki adapter sotib olishga to'g'ri kelishi mumkin.



Suv ulanishini tekshirish

- 1 Suv ta'minotini ishga tushiring va jihozni yoqing. Barcha fittinglarni yaxshi kiritilmagan shlanglar tufayli suv chiqib ketmasligi bo'yicha tekshiring.
- 2 **Water Filter** tugmasini bosib, uch soniya davomida ushlab turing. Yangi suv filtri faollashtirildi.
- 3 Suvning jihoz orqali oqayotganligini tekshirish uchun suv taqsimlagichi ostiga stakan joylashtiring.
- 4 Yana bir bor ulash trubkasi va birikkan joylardan suv chiqmayotganligini tekshiring.


Tekislash va eshikni tenglashtirish

Boshlashdan avval


Jihozning eshiklari notekis bo'lganida eshiklarni tenglashtirish uchun quyidagi ko'rsatmalarni bajaring.

Izoh


- Modelga bog'liq ravishda gayka klyuchi farq qilishi mumkin. Sizga mavjud gayka klyuchlaridan biri beriladi.
- A turdagi gayka klyuchi



- B turdagi gayka klyuchi



Tekislash oyoqchasini ko'tarish uchun chapga yoki pasaytirish uchun o'ngga burash orqali balandlikni sozlash uchun gayka klyuchi ❶ dan foydalaning.




Izoh

- Pol tekis bo'lmaganida yoki u kuchsiz yoki yaxshi qurilmagan hollarda eshiklarni tekislab bo'lmalik mumkin.
- Sovutkich og'ir va u mustahkam va qattiq yuzaga o'rnatilishi kerak.
- Ayrim taxta pollar xaddan tashqari egilgan hollarda tekislash bilan bog'liq qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Muzlatkich va sovutkich eshigi uchun eshikni tenglashtirish


Agar jihoz eshigi tekis ochilmayotgan bo'lsa, jihoz eshigi balandligidagi farqni yo'qoting.




Jihozni tekis joylashtirish

Jihozda ikkita old tomondagi tekislash oyoqchalari mavjud. Old tomondan orqaga yoki yon tomonlar o'rtasidagi qiyalikni o'zgartirish uchun oyoqchalarni sozlang. Agar jihoz turg'un emasdek ko'rinsa yoki eshiklar oson yopilmasa, quyidagi ko'rsatmalardan foydalangan holda jihozning qiyaligini sozlang.

- 1** Uni chapga burash orqali gaykani bo'shatish uchun eshikni oching va gayka klyuchi **1** dan foydalaning.




- 2** Sozlash sharniri boltini chapga yoki o'ngga burash orqali balandlikni sozlash uchun gayka klyuchi **2** dan foydalaning.



⚠️ DIQQAT

- Jihoz eshigi balandligini 3 mm dan ko'proqqa o'zgartirmang.

- 3** Gaykani o'ngga burash orqali qotirish uchun gayka klyuchi **1** dan foydalaning.



Qurilmani yoqish

Jihozni ulash

Jihozni yoqish uchun elektr shnurini devordagi rozetkaga ulang. Bitta rozetkaga boshqa jihozlarni ulamang.

Izoh

- Rozetkaga elektr kabelini (yoki sanchqini) ulagandan so'ng, jihoz ichiga oziq-ovqat mahsulotlarini qo'yish uchun yetarlicha vaqt

kuting. Agar jihoz to'liq sovib olgunga qadar uning ichiga oziq-ovqat mahsulotlari solinsa, ular aynib qolishi mumkin.

- Jihozni o'chiring, rozetkadan elektr shnurini chiqaring.

Qayta joylashtirish uchun jihozni ko'chirish

Jihozni ko'chirish

- 1** Jihoz ichidagi barcha oziq-ovqat mahsulotlarini chiqarib oling.

- 2** Elektr vilkasini mahkamlang.

- Elektr vilka ilgagiga ega bo'lgan modellar:
Elektr shnuri vilkasini rozetkadan uzing, elektr shnurini jihozning orqa yoki ust tarafidagi elektr shnuri ilgagiga kirgizing va qotirib qo'ying.
- Elektr vilkasi ilgagiga ega bo'lmagan modellar:
Elektr vilkasini chiqarib oling va elektr ta'minoti simini tarmoqli bilan jihozning elektr rozetkasi o'rnatish joyida joylashgan tomoniga mahkamlang.

- 3** Jihozni ko'chirish vaqtida uni yiqilib ketmasligi uchun polkalar va eshik dastasi kabi qismlarni tasma bilan mahkamlang.


- 4** Jihozni ikki yoki undan ko'proq kishi yordamida ehtiyotlik bilan siljiting. Jihozni uzoq masofaga tashiganda jihozni tik holda ushlang.

⚠️ DIQQAT

- Polga zarar yetkazmaslik uchun asboblarni nozik pollar ustida ehtiyotkorlik bilan harakatlantiring.
- Jihozni o'rnatish yoki ko'chirishda polni tirnamaslik uchun karton, pol gilam yoki gilamdan foydalaning.

⚠️ DIQQAT

- Jihozni zigzag izi bo'ylab harakatlantirmang.



-
- 5** Jihozni o'rnatgandan keyin elektr shnurini elektr rozetkasiga ulang va jihozni yoqing.

ISHLATISH

Foydalanishdan avval

Ishlatish bo'yicha izohlar

- Agar eshiklari yaxshi yopilmagan bo'lsa yoki yoz paytida namlik yuqori bo'lsa, jihoz eshiklarida muz hosil bo'lib qolishini foydalanuvchilar yodda tutishlari zarur.
- Jihoz tokchasi yoki eshik savatchasida saqlanayotgan oziq-ovqat mahsuloti bilan eshik orasida eshik bemalol yopilishi uchun yetarli joy bor ekanligiga ishonch hosil qiling.
- Eshikni uzoq vaqt ochib qo'yish jihoz bo'lmalardagi haroratning sezilarli darajada ortishiga olib kelishi mumkin.
- Agar sovutish jihozi uzoq vaqt davomida bo'sh qoldirilsa, uni o'chiring, muzlarini eriting, tozalang, quriting va jihoz ichida mog'or hosil bo'lishining oldini olish uchun eshigini ochiq qoldiring.
- Muzdan tushirishdan so'ng harorat ko'tarilishi borasida jihozning texnik tavsiflarida ma'lum chegaralar belgilanganiga e'tibor qaratib. Harorat ko'tarilishi tufayli saqlanayotgan oziq-ovqat mahsulotiga bo'ladigan ta'sirni kamaytirmoqchi bo'lsangiz, saqlanayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini zichlab yoping yoki bir necha qavat qilib o'rab qo'ying.

Door Open Alarm (eshik ochishdagi ogohlantirish signali)

Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud.

Agar eshik ochiq qolgan bo'lsa yoki yaxshi yopilmagan bo'lsa, ogohlantirish signali chalinadi.

Izoh

- Barcha eshiklarni yopgandan keyin ham ogohlantirish signali chalinishda davom etsa, LG Electronics mijozlar uchun axborot markaziga murojaat qiling.

Failure Detection (nosozlikni aniqlash)

Jihoz ishlashi davomida muammolarni avtomatik tarzda aniqlashi mumkin.

Izoh

- Agar biror muammo aniqlanadigan bo'lsa, jihoz ishlashdan to'xtaydi va har qanday tugma bosilishidan qat'i nazar, xatolik kodi displeyda ko'rinib turaveradi.
- Agar displeyda xatolik kodi ko'rsatilsa, elektr ta'minotini o'chirmang. Darhol LG Electronics mijozlarga ma'lumotlar berish markaziga murojaat qiling va xatolik kodini ayting. Agar elektr ta'minotini o'chirsangiz, ma'lumotlar berish markazimizdagi ta'mirlash texnik xodimi muammoning sababini topishda qiynalishi mumkin.

Energiyani tejash bo'yicha maslahatlar

- Energiyadan eng samarali foydalanish uchun barcha ichki qismlarni (mas., eshik kronshteynlari, tortmalar va polkalar) o'z joylarida saqlang. Ularning joylarini o'zgartirish kamroq darajada samarali energiya sarfi yoki ishlashiga olib kelishi mumkin.
- Saqlanayotgan oziq-ovqat mahsulotlari orasida yetarli bo'sh joy bo'lishiga ishonch hosil qiling. Bu sovuq havoning barobar taqsimlanishi va elektr toki uchun xarajatlarining kamroq bo'lishini ta'minlaydi.
- Terlash yoki muzlashning oldini olish maqsadida issiq oziq-ovqatni jihozga sovitilgandan keyin qo'ying.
- Oziq-ovqat mahsulotini muzlatgich bo'lmasida saqlaganda haroratni oziq-ovqat mahsulotida ko'rsatilgandan ko'ra pastroq qilib o'rnatib.
- Jihoz haroratini talab qilinganidan pastroq haroratga o'rnatmang.

- Sovutgich bo'lmasidagi harorat o'lchagich yaqiniga oziq-ovqat mahsulotlarini qo'ymang. O'lchagichdan kamida 3 sm masofa saqlang.

Mahsulotlarni yaxshi saqlash

- Noto'g'ri haroratda saqlanganda oziq-ovqat mahsulotlari muzlab qolishi yoki aynishi mumkin. Sovutkichni saqlanayotgan oziq-ovqatga mos bo'lgan haroratga o'rnatang.
- Muzlatilgan yoki sovutilgan oziq-ovqat mahsulotlarini zich yopiladigan idishlarda saqlang.
- Jihozga oziq-ovqat mahsulotini qo'yishdan avval uning iste'mol qilinishi mumkin bo'lgan muddati va yorlig'ini (saqlash bo'yicha ko'rsatmalar) tekshiring.
- Agar oziq-ovqat mahsuloti past haroratda tez aynib qoladigan bo'lsa, u mahsulotni uzoq muddat saqlamang.
- Muzlatilmagan oziq-ovqat mahsulotini bevosita muzlatilgan oziq-ovqat mahsulotiga tegib turadigan tarzda joylashtirmang. Agar har kuni muzlatish ko'zda tutiladigan bo'lsa, muzlatiladigan mahsulot miqdorini kamaytirish talab qilinishi mumkin.
- Sovitilgan yoki muzlatilgan oziq-ovqat mahsulotini darhol mos ravishda sovutgich yoki muzlatgich bo'lmasiga qo'ying.
- Xom go'sht va baliqni u boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga tegmasligi yoki ustiga tushmasligi uchun sovutkichda mos idishlarda saqlang.
- Sovutilgan taomlar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini sabzavotlar tortma qutisining tepasida saqlash mumkin.
- To'liq muzdan tushirilgan oziq-ovqat mahsulotini qayta muzlatmang. To'liq muzdan tushirilgan oziq-ovqat mahsulotini qayta muzlatish uning mazasi va ozuqaviylik darajasini pasaytiradi.
- Jihozni xaddan tashqari ortiqcha to'ldirib yubormang. Agar jihoz ortiqcha to'ldirib yuborilsa, sovuq havo mos darajada aylanmasligi mumkin.
- Issiq ovqatni qo'yishdan avval uni sovutib Agar jihoz ichiga juda ko'p issiq oziq-ovqat mahsuloti qo'yiladigan bo'lsa, uning ichki harorati oshib

ketishi va jihoz ichidagi boshqa mahsulotlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

- Agar oziq-ovqat mahsuloti uchun juda past harorat o'rnatgan bo'lsangiz, u muzlab qolishi mumkin. Jihozda oziq-ovqat mahsuloti to'g'ri saqlanishi uchun talab qilingan haroratdan past haroratni o'rnatmang.
- Agar jihozda salqinlatish bo'lmasi mavjud bo'lsa, tarkibida suv miqdori ko'p bo'lgan meva-sabzavotlarni bunday bo'lmalarda saqlamang, chunki past harorat tufayli ular muzlashi mumkin.
- Elektr tarmog'ida uzilish bo'lsa, idoraga sim qoqing va uzilish qanchaga cho'zilishini so'rang.
 - O'chiq paytida eshigini ochmaslikka harakat qiling.
 - Elektr ta'minoti tiklangach, oziq-ovqat mahsulotlarining holatini tekshirib ko'ring.

Eng yuqori muzlatish quvvati

- Eng yuqori muzlatish quvvati uchun muzlatish haroratini eng sovuq temperaturaga qo'ying.
- **Express Freeze** funksiyasi muzlatish kamerasini uning eng yuqori muzlatish quvvatiga erishishiga imkon beradi. Bu odatda 24 soatgacha vaqtni oladi va funksiya avtomatik ravishda o'chiriladi.
- **Express Freeze** yangi mahsulotlar muzlatish bo'lmasiga joylashtirilishidan 7 soat avval yoqib qo'yilishi kerak.
- Oziq-ovqatlarni tez muzlatish uchun, tokchani eng tepasidagi chap tomonida saqlang. Agar ko'proq oziq-ovqatni saqlamoqchi bo'lsangiz, tepadan boshlab tokchaga joylashtiring. Oziq-ovqat ushbu zonada eng tez muzlaydi.
- Havo aylanishi yaxshiroq bo'lishi uchun savatchalar, tortmalar va tokchalar kabi jihozning barcha ichki qismlarini o'z joyiga qo'ying.

Maksimal miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini muzlatish

Agar katta miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari joylashtirilishi kerak bo'lsa, barcha muzlatish

bo'lmasi tormalari jihozdian olib qo'yilishi va oziq-ovqat mahsulotlari bevositda muzlatish bo'lmasiidagi muzlatish polkalariga joylashtirilishi kerak.

⚠️ DIQQAT

- Tortmalarni chiqarib olish uchun avval tortmalardan oziq-ovqat mahsulotlarini chiqarib oling va keyin tortmalarni ehtiyotlik bilan tortib chiqaring. Bunday qilmaslik shikastlanishga yoki tortmalarning zararlanishiga olib kelishi mumkin.

Izoh

- Har bir tortma shakli turlicha bo'lishi mumkin, uni joyiga to'g'ri holatda qo'ying.

Ikki yulduzli bo'lmacha

Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud.


- Ikki yulduzli bo'lmacha (^(**)) savatchasi yoki tortmasi muz va oziq-ovqat mahsulotlarini -12°C dan -18°C gacha haroratda qisqa muddat saqlashda foydalanilishi mumkin.
- Ikki yulduzli muzlatilgan oziq-ovqatlar bo'lmalari avvaldan muzlatilgan oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, muzqaymoq saqlash yoki tayyorlash va muz kubchalarini tayyorlash uchun mosdir.
- Ikki yulduzli bo'lmalar yangi oziq-ovqat mahsulotlarini muzlatish uchun mos kelmaydi.
- Ikki yulduzli bo'limga ega bo'lgan muzxona savatchalari va muzxona tortmalarining soni xarid qilingan modelga bog'liq ravishda farq qilishi mumkin.

Mahsulot xususiyatlari

Jihozning ko'rinishi va uning qismlari uning modeliga qarab farqlanishi mumkin.

Korpus

*1 Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud.



❶ Tarqatgich boshqaruv paneli*¹

Tarqatgich rejimini o'rnatadi.

❷ Door-in-Door (eshikdagi eshik)*¹

Bu olish oson bo'lishini talab qiluvchi tez-tez foydalaniladigan buyumlar uchun qulay saqlash sohasidir.

❸ Door-in-Door (eshikdagi eshik) dastagi*¹

Door-in-Door (Eshikdagi eshik)'ni ochadi.


❹ InstaView Door-in-Door (eshikdagi eshik)*¹

The InstaView Door-in-Door (Eshikdagi eshik) bo'lmasi odatiy ishlatiladigan oziq-ovqat mahsulotlarini oson olish imkoniyatini beradi.


Ichki qism

*1 Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud.

Door in Door Modeli:



InstaView Door in Door Modeli:



① LED-chiroq

Jihoz eshigi ochilganda uning ichidagi LED-chiroqlar yonadi.

② Harorat o'lchagich*¹

Bu o'lchagich sovutkich bo'lmasidagi haroratni o'lchaydi.

- Haroratni aniq o'lchash uchun oziq-ovqat mahsulotini bu o'lchagichga yaqin qo'ymang.

③ **Avtomatik muz tayyorlagich***1

Bu yerda muz avtomatik tarzda tayyorlanadi va saqlanadi.

④ **Muzlatgich polkasi**

Go'sht, baliq va muzqaymoq singari muzlatilgan oziq-ovqat mahsulotlari saqlanishi uchun mo'ljallangan.

⑤ **Muzlatgich eshigi savatchasi**

Kichik idishlardagi muzlatilgan oziq-ovqatlarni saqlaydi. Bu yerda muzqaymoq yoki uzoq vaqt saqlanadigan oziq-ovqatlarni saqlamang.

⑥ **Muzlatgich tortma qutisi**

Uzoqroq saqlash uchun muzlatilgan oziq-ovqat mahsulotlari joylashtiriladi.

⑦ **Sovutgich tokchasi**

Sovutilgan oziq-ovqat mahsulotlari va yangi oziq-ovqat mahsulotlarini saqlaydi.

- Namligi yuqori bo'lgan oziq-ovqatlarni tokchani old tomonida saqlaydi.
- Jihozda tokchalar soni uning modeliga qarab o'zgarishi mumkin.

⑧ **Butilkalar polkasi***1

Butilkalar polkasidan foydalanib konteynerlar va uzun butilkalarni saqlaydi.

⚠ **DIQQAT**

- Past bo'yli butilkalar yoki idishlarni joylashtirmang. Bu buyumlar yiqilib tushishi va jarohatlanish yoki jihozning zararlanishiga olib kelishi mumkin.
-

⑨ **Gazaklar tortma qutisi***1

Muzlatilgan kichik paketlardagi ovqatlarni saqlash uchun mo'ljallangan.

⑩ **Door in Door bo'lmasi***1

Ichimliklar va gazaklar kabi ko'p foydalaniladigan oziq-ovqat mahsulotlar saqlanadi.

⑪ **Sovutgich eshigi savatchasi**

Sovutilgan oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va sous idishlari bu yerda saqlanishi mumkin.

⑫ **Suv baki***1

Dispenserga ta'minot uchun suv saqlaydi. U qo'lda to'ldirishni talab qiladi.

⑬ **Sovutgich tortmasi**

Meva sa sabzavotlar imkon qadar uzoq muddat barraligini saqlab qolishi uchun saqlanadi.

⑭ **Tuxum qutisi***1

Tuxumlar saqlanadi.

- Undan muz chelagi sifatida foydalanmang yoki uni sovutkich yoki sabzavotlar tortma qutisining ustidagi polkaga joylashtirmang.

⑮ **Pastki torma qopqog'i**

Bu pastki torma qopqog'i.

⚠ DIQQAT

- Pastki tokchaning old tomonida hech qanday narsalarni saqlamang. Ular tushib ketib zarar yetkazishi yoki jihozni shikastlashi mumkin.

16 Chaqqon muz tayyorlash ^{*1}

Bu yerda muz avtomatik tarzda tayyorlanadi va saqlanadi.

17 Havo filtri ^{*1}

Sovutgich bo'lmasi ichidagi noxush hidlarni kamaytiradi.


Boshqaruv paneli

Jihozdagi boshqaruv paneli uning modeliga qarab o'zgarishi mumkin.


Boshqaruv paneli va funksiyalar

*1 Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud.

Boshqaruv paneli



Tarqatgich boshqaruv paneli



1 Fridge

- 1 °C dan 7 °C gacha oraliqdagi kerakli haroratni tanlash uchun bu tugmani qayta-qayta bosing.
- Sovutkichning sukut bo'yicha harorati 3 °C.

Izoh

- Joriy ichki harorat jihoz ichidagi oziq-ovqat mahsuloti holatiga qarab o'zgaradi, chunki ko'rsatilgan o'rnatilgan harorat jihozning joriy harorati emas, balki ko'zlangan haroratidir.

2 Non Plumbing*1

Suv taqsimlagich baki to'g'ri o'rnatilganda **Non Plumbing** tasviri chiqadi.

3 Freezer

- 23 °C dan -15 °C gacha oraliqdagi kerakli haroratni tanlash uchun bu tugmani qayta-qayta bosing.
- Muzlatish kamerasining sukut bo'yicha harorati -18 °C.

4 Self Care*1

Suv chiqarish tirqishini toza saqlash uchun UB nurlaridan foydalaniladi. UB tozalash funksiyasi har soatda avtomatik tarzda 10 daqiqa ishlaydi yoki uni istalgan vaqtda qo'lda ishga tushirish mumkin. Bu funktsiyani yoqish uchun tugmasini 3 soniya davomida bosib turing.

Izoh

- Agar u ishlayotgan bo'lsa, dispenser pedalasi bosilganda bu funksiya vaqtincha to'xtaydi va 1 soatdan keyin qayta ishga tushadi.
- Bu funksiya **Self Care** tugmasi bosilmagan holda har soatda 10 daqiqa davomida avtomatik tarzda ishlaydi.
- UV tozalash funksiyasi yoqilganida tarqatgich boshqaruv panelidagi LED chirog'i yonadi.
 - Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud.
- UVnano** UV va uning birligi bo'lgan nanomembr so'zidan olingan birikma so'zdir.

5 Wi-Fi

Bu tugma jihozni uydagi Wi-Fi tarmog'iga ulashga imkon beradi. **LG ThinQ** ilovasining dastlabki o'rnatish bo'yicha ma'lumotlar olish uchun Smart funksiyalar bo'limiga qarang.

6 Express Cool

Bu funksiya sabzavotlar, mevalar kabi katta miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini tez sovutishi mumkin.

- Bu funksiya mazkur tugmani har bosganingizda navbatma-navbat o'chib yonadi.

- Bu funksiya ma'lum vaqt o'tganidan so'ng avtomatik tarzda o'chadi.

7 Express Freeze

Bu funksiya ko'p miqdordagi muz yoki muzlagan oziq-ovqat mahsulotlarini tez muzlatish imkonini beradi.

- **Express Freeze** tugmasini funksiyani 24 soatga faollashtirish uchun bosib. Ushbu funksiya 24 soatdan keyin avtomatik tarzda o'chadi.
- Bu funksiya mazkur tugmani har bosganingizda navbatma-navbat o'chib yonadi.
- Bu funksiya ma'lum vaqt o'tganidan so'ng avtomatik tarzda o'chadi.

8 Ice On/Off

Avtomatik muz tayyorlagichni Yoqish/O'chirish uchun **Ice On/Off** tugmasini 3 soniya bosib turing.

9 Lock

Displaydagi qulf funksiyasi qolgan barcha tugmachalarni o'chirib qo'yadi.

- Boshqaruv paneli tugmalarini qulflab qo'yish uchun **Lock** tugmasining chirog'i yongunicha va funksiya faollashtirilgunicha 3 soniya bosib turing.
- Bu funksiyasi o'chirib qo'yish uchun **Lock** tugmasini tugmasining chirog'i yongunicha va funksiya faolsizlashtirilgunicha 3 soniya bosib turing.

10 Water Filter^{*1}

Ko'rsatgich chirog'i yonganida suv filtrini almashtiring.

11 Craft Ice^{*1}

Craft Ice tugmasini **6 ICE**, **3 ICE** yoki **Off** ni o'rnatish uchun bosib.

Izoh

- Ko'proq muz uchun, **6 ICE** rejimini tanlang. Tiniqroq muz uchun esa **3 ICE** rejimini tanlaysiz.
- **Craft Ice** rejimini o'zgartirish uchun:
 - 1) **Craft Ice** tugmasini bosib va joriy rejim paydo bo'ladi.
 - 2) **Craft Ice** tugmasini qayta-qayta bosib, istalgan **Craft Ice** rejimini tanlang.
 - 3) 5 soniya turib, oxirgi o'rnatilgan rejim saqlanadi va normal holatiga qaytadi.

12 Suv va muz turi^{*1}

Boshqaruv panelidagi tugmalardan kerakli tarqatkich rejimini tanlang. Kublangan muz, suv yoki maydalangan muz chiqarish uchun dispenser pereklyuchatelini shisha yoki boshqa konteyner bilan bosib.

Izoh

- Ko'rsatilayotgan temperatura - bu qurilma ichidagi maqsadli harorat va jihoz ichidagi haqiqiy temperatura emas.
- Jihoz ichidagi haqiqiy harorat quyidagi faktorlarga bog'liq: oziq-ovqat miqdori, eshik qancha vaqt ochilgani, qurilma qayerda joylashgani. Ushbu omillarga qarab haroratni o'rnatish.
- Jihozni tozalash davomida biror barmoq yoki teri boshqaruv paneliga tegib ketsa, ushbu tugma funksiyasi ishg'a tushib ketishi mumkin.

- Oziq-ovqat mahsulotlarini optimal tarzda saqlash uchun bar bir bo'lma uchun sukut bo'yicha haroratdan 1 °C oshirish yoki kamaytirish tavsiya qilinadi.

Muz va suv taqsimlagichi

Muz va suv taqsimlagichidan foydalanishdan avval

⚠ DIQQAT

- Bolalar dastani o'ynamasligi yoki shikast yetkazmasligi uchun ularni dispenserga yaqinlashtirmang.
- Dastlabki bir nechta muz bo'laklarini tashlab yuboring (taxminan 20 ta kubcha va 7 stakan suv). Buni jihozdun uzoq vaqt davomida foydalanilmagan vaqtda ham qilish lozim.
- Agar undan 48 soat davomida foydalanilmasa, suv taqsimlash tizimini tozalang. Agar 5 kun davomida suv tortilmagan bo'lsa, suv ta'minotiga ulangan suv tizimini yuving.
- Suv taqsimlash tizimini tozalash uchun 5 daqiqa davomida taqsimlagichdan suv oqizing va dastlabki bir nechta muz bo'laklarini tashlab yuboring.
- Muz yoki suv taqsimlash paytida ingichka billur chashka yoki chinni ishlatmang.


Izoh

- Agar suv, kublangan muz yoki maydalangan muz taqsimlanayotgan vaqtda sovutgich eshigini ochsangiz, taqsimlash to'xtatib qo'yiladi. Eshikni yopganingizda tanlangan elementni taqsimlash davom ettiriladi.
- Agar stakan ensiz bo'lsa, suv sachrab ketishi yoki umuman ichiga tushmasligi mumkin.
- Suv, kublangan suv yoki maydalangan muzni taqsimlashda qirrasining diametri 68 mm dan katta bo'lgan stakandan foydalaning.
- Muz tayyorlagich kichikroq muz kubchalarini hosil qilganida suv bakidagi suvning yetarli emasligi tufayli muz tayyorlagichga yetkazib berilayotgan suv miqdori past bo'lishi mumkin. Agar muzdan tez-tez foydalanilmasa ham uning bo'laklari bir-biriga yopishib qolishi mumkin.


- Suv filtri almashtirilganidan keyin sutsimon/bulutsimon suv chiqishi oddiy hol hisoblanadi. Suvdagi bu havo asta-sekin tozalanadi va bu o'tish davrida suvni ichish mumkin.

Muz va suv taqsimlagichidan foydalanish

- 1 O'zingiz xohlagan ikonka ustidagi LED-chiroq yonmagunicha taqsimlagichni tanlash ❶ tugmasini bosing.




- 2 Kubli muz, suv yoki maydalangan muz chiqarish uchun taqsimlagich kurakchasini ❷ shisha yoki boshqa konteyner bilan bosing.



Dispenserni tozalash

Muz va suv chiqarish tirqishini tozalash

Suv chiqarish tirqishi ❶ yoki muz chiqarish tirqishi ❷ ni tez-tez toza latta bilan artib turing, chunki u osongina kirlanishi mumkin.




Izoh

- Matodagi tuklar tirqishlarga yopishib qolishi mumkin.

Dispenser patnisini tozalash


Butun sohani nam latta bilan arting. Muz yoki suv to'kilishi tufayli dispenser lotogi osongina nam bo'lishi mumkin.




Suv bakini suv bilan to'ldirish

Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud. Suv bakida chiqariluvchi yoki avtomatik muz tayyorlagich tomonidan muz tayyolash uchun foydalaniluvchi suv saqlanadi.


- 1 Uni dastasidan ushlagan holda tashqariga tortish orqali suv taqsimlagichini chiqarib oling.



- 2 Suv taqsimlagich bakining qopqog'i yoki yopgichini oching.




- 3 Butilkadagi filtrlangan yoki toza filtrlangan suv bilan suv taqsimlagich bakining ichidagi ko'rsatilgan chiziqqacha to'ldiring. (Jami sig'imi: 4 l)




⚠️ DIQQAT

- Suv bakida albatta kamida 0,5 litr suv saqlab turing. Aks holda bu nosozliklarga olib kelishi mumkin.

- 4** Suv bilan to'ldirgandan keyin suv taqsimlagich bakining qopqog'i yoki yopgichini yoping.



- 5** Suv taqsimlagichini sovutgich tokchasiga qayta joylashtiring.



sifatiga ta'sir qilishi va muz tayyorlanmasligiga olib kelishi mumkin.

- Suv dispenseri bakida suv yo'q bo'lsa, dispenserning sovuq suv va muz taqsimlash funksiyasini ishlatib bo'lmaydi. Suv dispenseri bakida suv borligini tekshiring, agar yo'q bo'lsa, suv quying.
- Taqsimlagichdagi suv yoki muz taqsimlanib bo'lganidan keyin suv bakini chiqarib olishdan avval kamida 15 soniya kuting.
- Taqsimlagich va Avtomatik muz tayyorlagichga suv yetkazib berilayotganida suv bakidan normal tovush chiqadi. Bu nosozlikdan dalolat bermaydi.

Avtomatik muz tayyorlagich

Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud.

Xarid qilingan modelga bog'liq ravishda bu xususiyat farq qilishi mumkin.

Xona ichidagi muz tayyorlagichdan foydalanishdan avval

- Odatda, jihoz o'rnatilgandan so'ng, taxminan 48 soat o'tganidan keyin muz tayyorlagich muz ishlab chiqaradi.
- Muz chelagi muzga to'lganida muz hosil qilish to'xtatiladi.
- Muz chelagiga muz tushganida tovush chiqishi oddiy hol hisoblanadi.
- Agar muz kubchalari muz chelagida uzoq vaqt saqlansa, ular bir-birlariga yopishib qolishlari va ularni osongina ajratib bo'lmashlik mumkin. Bunday hollarda muz chelagini bo'shating va yangi muz tayyorlang.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Faqat muz idish yoki suv chiqarish uskunasinigina ichimlik suvi bilan to'ldiring.
- Suv bakini suvdan boshqa ichimlik yoki issiq suv bilan to'ldirmang.

⚠ DIQQAT

- Suv dispenseri bakini chiqarish yoki o'rnatish paytida ortiqcha kuch ishlatmang yoki zarba bermang. Buning natijasida jihozga shikast yetishi yoki jarohat olish mumkin.
- Bolalarga taqsimlagich bakiga yaqin kelishlariga ruxsat berilmasligi kerak.

Izoh

- Jihozni o'rnatgandan keyin suv dispenseri bakini ishlatishdan oldin yuvib tashlash lozim.
- Suv dispenseri baki jihozga to'g'ri o'rnatilganini tekshiring. Agar to'g'ri o'rnatilmagan bo'lsa, bakdan jihozga suv oqib tushishi mumkin.
- Agar suv taqsimlagich bakida yetarli miqdorda suv bo'lmasa, bu muz kubchasining o'lchami va


⚠ DIQQAT

- Suv filtri almashtirilganidan keyin sutsimon yoki bulutsimon suv chiqishi oddiy hol hisoblanadi. Suvdagi bu havo asta-sekin tozalanadi va suvni ichish mumkin.

⚠️ DIQQAT

- Taqsimlangan dastlabki suv va muz tarkibida suv ta'minot liniyasidan yoki suv bakidan kelgan zarrachalar yoki hid mavjud bo'lishi mumkin.
- Agar rangsizlangan muz hosil qilinsa, manbasini aniqlash uchun suv baki va suv ta'minotini tekshiring. Agar muammoni bartaraf qilib bo'lmasa, LG Electronics mijozlarga ma'lumotlar berish markaziga murojaat qiling. Muammo bartaraf qilinmagunicha muz yoki suvdan foydalanmang.
- Muz chiqarish teshigi yoki avtomatik muz tayyorlagichga qo'lingiz yoki asboblardan tegmang.
- Uni suv yoki boshqa ichimliklar bilan to'ldirilgan stakanga muz soling. Allaqachon suyuqlik solingan stakanga muz solinganda sachrab ketishlar yuz beradi.
- O'ta tor yoki chuqur stakandan foydalanmang. Muzlar muz yo'lakchasiga tiqilib qolishi va bu jihozning ishlashiga ta'sir qilishi mumkin.
- Stakanni muz chiqarish tirgushidan mos masofada tuting. Muz chiqarish tirgushiga juda yaqin ushlangan stakan muzning taqsimlanishiga halaqit berishi mumkin.
- Agar ta'tilda uzoqqa ketmoqchi bo'lsangiz yoki elektr toki uzoq vaqt o'chib qolsa, muz chelagi ichidagi muzni chiqarib tashlang. Ergan muzdan hosil bo'luvchi suv taqsimlagichdan polga tomishi mumkin.
- Juda kichik teshikka ega idish to'kilishning oldini olish uchun dispenseriga iloji boricha yaqinroq tutilishi kerak.

mahsulot miqdori va hok.) bog'liq ravishda bu miqdor farq qilishi mumkin.



❶ Avtomatik o'chirish (sezgich)

Muzlatgich muz tayyorlagichdan foydalanishdan avval

Izoh


- Muz ishlab chiqarish asbobi jihoz joylashtirilganidan so'ng taxminan 48 soatdan keyin muz ishlab chiqarishni boshlaydi.
- O'rnatilgandan so'ng, bir necha ilk partiyadagi muzlarni tashlab yuboring.
- Muz chelagiga muz tushganida tovush chiqishi oddiy hol hisoblanadi.
- Muz chelagi muzga to'lganida muz hosil qilish to'xtatiladi.
- Muzning soni va shakli holatga qarab o'zgaradi (jihoz atrof-muhit harorati, eshik qancha ko'p ochilib yopilishi, jihoz ichidagi oziq-ovqat miqdori, suv bosimi va hk.).
- Elektr uzlishi yuz berganida, muz chelagida saqlangan muzni tashlab yuboring.

Eshik ichidagi muz tayyorlagich

Sharoit yaxshi bo'lgan hollarda avtomatik muz tayyorlagich bir vaqtning o'zida 24 soat davomida 70-182 ta muz kubchalarini tayyorlashi mumkin. Muhitga (jihoz atrofidagi muhit harorati, eshikning ochib yopilish chastotasi, jihozda saqlanayotgan

Muzlatkich muz tayyorlagichi (Craft Ice)

Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud.



1 Shchup

⚠️ DIQQAT

- Eshikdagi muz chelagiga yumaloq muz solmang, chunki muz va suv taqsimlagichiga zarar yetqazishi mumkin.

Izoh


- Muz ishlab chiqarish asbobi jihoz joylashtirilganidan so'ng taxminan 48 soatdan keyin muz ishlab chiqarishni boshlaydi. Birinchi partiyalar yumaloq yoki tiniq bo'lmisligi mumkin.
- O'rnatilgandan so'ng yoki suv filtri alishtirilgach, birinchi bir nechta muz partiyalari yarim doira shaklida yoki ularda havo pufakchalari bo'lishi mumkin.
- Suv bosimi 20 psi (har bir kvadrat dyumga funt og'irligi) 138 kPa dan kam bo'lsa yoki teskari osmos tizimi ishlatilsa, muzning shakli turlicha bo'lishi mumkin.
- O'rnatish joyidagi suvning sifatiga va ishlash sharoitiga qarab muz notiniq ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.
- Muz chelagida qolgan muz bo'lakchalarini tashlab yuboring, chunki muz idishida saqlanadigan muzga yopishib qolishi mumkin.
- Qisqa muddatli elektr uzilishidan so'ng, muzning birinchi partiyasini tayyorlashga ko'proq vaqt ketishi hamda muz yumaloq chiqmasligi mumkin. Agar uzoqroq muddat elektr uzilishi sodir bo'ladigan bo'lsa, muz chelagidagi muzni tashlab yuboring.

- Craft Ice** muz tayyorlagichi bir vaqtning o'zida 1 partiya yumaloq muz (3 dona) ishlab chiqaradi.
- 3 ICE** rejimida, **Craft Ice** muz tayyorlagichi 1 partiya yumaloq muzni (3 dona) har 24 soatda ishlab chiqaradi. **6 ICE** rejimida **Craft Ice** muz tayyorlagichi 2 partiya yumaloq muzni (jami 6 dona) xuddi shu vaqtda ishlab chiqaradi.
- Ko'proq muz uchun, **6 ICE** rejimini tanlang. Tiniqroq muz uchun esa **3 ICE** rejimini tanlaysiz.
- Ishlash sharoitiga qarab muz tayyorlash uchun kerak bo'ladigan vaqt o'zgarishi mumkin.
- Muz chelagi 20-30 dona yumaloq muz bo'laklarini saqlaydi.

Muz chelagini chiqarib olish/ qayta joylash


Agar faqat maydalangan muzdan foydalanilsa, muz tarnovi muz bo'laklari bilan to'silib qolishi mumkin. Muz chelagini chiqarib olish va rezina shpatel bilan yo'lakchani tozalash orqali to'planib qolgan muzlarni olib tashlang. Vaqti-vaqti bilan kublangan muzlarni chiqarish ham muzlarning to'planib qolishining oldini olishga yordam berishi mumkin.

- 1 Avtomatik muz tayyorlagichni o'chiring. Boshqaruv panelidagi **Ice On/Off** tugmasini bosib 3 soniya ushlab turing.
- 2 Uni yuqoriga ko'tarish orqali avtomatik muz tayyorlagich qopqog'ini ushlab va chiqarib oling.



- 3 Muz chelagini ikki qo'lingiz bilan ushlang va uni yuqoriga ko'targan holda tortib oling.

Qo'shimcha muz chelagi sotib olingan modelga qarab berilmasligi mumkin.



- 4 Eshik muz chelagini uni chiqarib olish jarayoniga teskari tartibda qayta joylashtiring.

⚠️ DIQQAT

- Avtomatik muz tayyorlagichning mexanik qismlariga qo'lingiz yoki asboblari bilan tegmang. Aks holda jihoz buzilishi yoki jarohatlanishingiz mumkin.
- Avtomatik muz tayyorlagichni qismlarga ajratmang, ta'mirlamang yoki o'zgartirmang. Bu ishlar faqat xizmat korsatuvchi texnik tomonidan bajarilishi kerak.
- Ehtiyot bo'lish lozim, chunki avtomatik muz tayyorlagich pereklyuchateli yoqilgan holatga o'rnatilganida muzxona eshigi ochilganidan keyin avtomatik muz tayyorlagich uzluksiz ishlaydi.
- Bolalarni dispenserdan uzoqroq saqlang.
- Muz chelagini qayta joyiga joylashtirganda uning to'g'ri joylashtirilganligiga ishonch hosil qiling. Agar u qiyshayib qolsa yoki notekis o'rnasa, sensordagi uzilishlar tufayli muz hosil qilish davom ettirilmasligi mumkin.

Muz tayyorlagichni yoqish/o'chirish

Avtomatik muz tayyorlagichni Yoqish/O'chirish uchun. Boshqaruv panelidagi **Ice On/Off** tugmasini uch soniya bosib turing.

⚠️ DIQQAT

- Agar suv liniyasi ulanmagan bo'lsa, muz tayyorlagichga bo'lgan elektr ta'minotini o'chirib qo'ying.

Eshitilishi mumkin bo'lgan odatiy tovushlar

- Muz tayyorlagich suv bilan to'ldirilayotgan vaqtda muz tayyorlagichning suv klapani tovush chiqaradi. Agar **Ice On/Off** tugmasi **Yoqish** holatiga o'rnatilgan bo'lsa, u hattoki suvga ulanmagan bo'lsa ham tovush chiqaradi. Tovush chiqishini to'xtatish uchun **Ice On/Off** tugmasini **O'chirish** holatiga bosing.
- Muz tayyorlagichga quvurlardan suv to'ldirishini va muz chelagiga muz tushayotgan ovozni eshitasiz.

Ta'til vaqti uchun tayyorlash

Muz tayyorlagichni o'chirish uchun **Ice On/Off** tugmasini uch soniya bosib turing va **Ice On/Off** tugmasini O'chirish holatiga o'rnatib. Jihozga bo'lgan suv ta'minotini ham o'chiring.

Izoh

- Muz chelagini **Ice On/Off** tugmasini O'chirish (Off) holatiga o'rnatilganida muz chelagi bo'shatib qo'yilishi kerak.

Agar atrofdagi harorat muzlash nuqtasidan pastga tushsa, suv liniyalari yoki ulanishlarning yorilishi natijasida suv bosishi tufayli mulkka jiddiy zarar yetishining oldini olish uchun malakali texnik yordamida suv ta'minot tizimini quriting.


InstaView

Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud.

InstaView Eshikdagi eshikdan foydalanish

InstaView Door in Door funksiyasi sovutgich eshigini ochmasdan changqovbosti ichimliklar va

gazaklar kabi tez-tez olinadigan mahsulotlar kamayib qolganini ko'rish imkonini beradi.



1 Door in Door ichidagi LED-chiroqni yoqish yoki o'chirish uchun oynani ikka marta taqillating.

2 LED-chiroq o'n soniyadan so'ng avtomatik tarzda o'chadi.

⚠️ DIQQAT

- Jihoz eshigidagi eshik ochiq turganda uning eshigini ochmang yoki jihoz eshigi ochiq turganda uning eshigidagi eshigini ochmang. Eshikdagi eshik jihoz qirrasiga qisilib qolishi va buzilishi mumkin.

Izoh

- InstaView Door in Door** funksiyasi muzlatgichning chap yoki o'ng eshigini yopgandan keyin 2 soniya ichida va muz ulashgich ishlaganida bir zumda o'chiriladi.
- Oynaning markaziga yaqinroq joyini taqillating. Oynaning chetroq qismini taqillatganda **InstaView Door in Door** funksiyasi yaxshi ishlamasligi mumkin.
- Taqillatish ovozi eshitilgudek qilib qattiq taqillating.
- Sovutgich yaqinida qattiq ovoz chiqqudek bo'lsa ham **InstaView Door in Door** funksiyasi ishga tushib ketishi mumkin.
- Shisha eshikni quruq latta bilan tozalang. Qotib qolgan dog'larni ketkazish uchun lattani iliq suv yoki shisha tozalagich bilan biroz namlang.

Shisha tozalash vositasini to'g'ridan-to'g'ri shisha eshikka sepmang.


Door-in-Door (eshikdagi eshik)

Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud.

Eshikdagi eshikdan foydalanish

Ichki bo'lmani yopib turgan eshik ochilishi uchun eshik tagidagi dastakni yuqoriga torting.

Eshikdagi eshik ichiga oziq-ovqat mahsulotlarini tartib bilan solish uchun yetarlicha bo'sh joy va atrofidagi savatchalar bor.



⚠️ DIQQAT

- Jihoz eshigidagi eshik ochiq turganda uning eshigini ochmang yoki jihoz eshigi ochiq turganda uning eshigidagi eshigini ochmang. Eshikdagi eshik jihoz qirrasiga qisilib qolishi va buzilishi mumkin.


Tortmasi

⚠️ DIQQAT

- Ularni chiqarib olishdan avval doimo tortmalarni bo'shating va ularni chiqarib olish va qayta joylashda ikkala qo'ldan foydalaning.
- Tortma qutilarni chiqarib olish va qayta joylashtirishdan avval sovutgich eshiklarining to'liq ochilganligiga ishonch hosil qiling.

Sabzavot tortmasidan foydalanish

Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud. Mevalar va sabzavotlarni yangi holda tuting. Alohida saqlash ehtiyojariga javob berishi uchun kontroller ❶ ni sozlang.




❷ Sabzavotlarni saqlash uchun. (Tavsiya qilinadi)

❸ Mevalarni saqlash uchun.

Tortmalarni chiqarib olish/qayta joylash

❶ Tortma ichidagi narsalarni olib qo'ying. Sabzavot tortmasining dastasidan ushlang va uni ehtiyotlik bilan tashqariga torting.

❷ Sabzavotlar tortmasini tepaga ko'taring va tashqariga chiqarib oling.



❸ Tortmani chiqarib olish jarayoniga teskari tartibda qayta joylashtiring.

Tokcha


⚠️ DIQQAT

- Shisha tokchalar og'ir. Ularni chiqarib olishda o'ta ehtiyot bo'ling.
- Shisha tokchalarni sovuqligida issiq suv bilan tozalamang. Harorat birdan o'zgarishi tufayli tokchalar sinishi mumkin.

Polkani chiqarib olish/qayta joylash

❶ Polkaning old tomonini qiyshaytiring va keyin polkani tekis qilib ko'taring.

❷ Polkani tashqariga torting.



❸ Olib tashlash jarayonining aksini bajargan holda polkalarni o'z joyiga o'rnatang.


⚠️ DIQQAT

- Polkalarning har ikkala tomonining bit tekislikda joylashganligiga ishonch hosil qiling. Bunday qilmaslik polkaning yiqilib ketishi yoki oziq-ovqatlarning to'kilib ketishiga olib kelishi mumkin.

Eshik savatchasi

Eshik savatchasini chiqarib olish/qayta joylash

- 1 Savatchaning har ikkala tomonini ushlang va tepaga ko'targan holda uni chiqarib oling.



- 2 Eshik savatchalarini chiqarib olish jarayoniga teskari tartibda qayta joylashtiring.

AQLLI FUNKSIYALAR

LG ThinQ ilovasi

Bu xususiyatdan faqat Wi-Fi ga ega bo'lgan modellarda foydalanish mumkin.

LG ThinQ ilovasi smartfondan foydalanib jihoz bilan aloqa qilishga imkon beradi.

LG ThinQ ilovasi xususiyatlari

Qulay aqlli funksiyalar yordamida smartfon orqali jihozga ulaning.

Smart Diagnosis

- Agar sizda ilovadan foydalanishda muammolar bo'lsa, ushbu aqlli tashxislash xususiyati muammoni tashxislashda yordam beradi.

Sozlanmalar

- Jihozda va ilovada turli parametrlarni qo'yish imkonini beradi.


Izoh

- Quyidagi hollarda **LG ThinQ** ilovasidagi **Qurilma kartalari > Sozlamalar > Tarmoqni o'zgartirish** ostida har bir jihozning tarmoq ma'lumotlarini yangilashingiz kerak.
 - simsiz router o'zgarganida
 - simsiz router paroli o'zgarganida
 - Internet xizmati provayderi o'zgarganida
- Mahsulot sifatini oshirish maqsadida foydalanuvchiga oldindan ogohlantirishsiz ilovaga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.
- Rusumga bog'liq ravishda xususiyatlar o'zgarishi mumkin.

LG ThinQ ilovasini o'rnatish va LG jihozini ulash

QR kodli modellar

Smartfoningizdagi kamera yoki QR kod rideri ilovasidan foydalanib mahsulotga yopishtirilgan QR kodni skanerlang.



QR kodsiz modellar

- 1 Smartfonda Google Play Store yoki Apple App Store do'konidan **LG ThinQ** ilovasini qidiring va o'rnatang.
- 2 **LG ThinQ** ilovasini ishga tushiring va mavjud hisobingiz bilan kiring yoki kirish uchun LG hisobi yarating.
- 3 LG jihozingizni ulash uchun **LG ThinQ** ilovasidagi qo'shish (+) tugmasini bosing. Jarayonni yakunlash uchun ilovadagi ko'rsatmalarni bajaring.

Izoh

- Wi-Fi ulanishini tekshirish uchun boshqaruv panelida Wi-Fi indikatori yoqilganligini ko'ring.

- Bu jihoz faqat 2,4 GGs chastotali Wi-Fi tarmoqlarda ishlaydi. Tarmoq chastotasini tekshirish uchun internet-provayderingizga murojaat qiling yoki simsiz router qo'llanmasiga qarang.
- **LG ThinQ** tarmoqqa ulanish muammolari yoki tarmoqda yuzaga kelgan har qanday nosozlik, noto'g'ri ishlash yoki xatolarni bartaraf qilish uchun mo'ljallanmagan.
- Atrofdagi simsiz aloqa muhiti tufayli simsiz tarmoq xizmati sekin ishlashi mumkin.
- Agar jihoz va simsiz router orasidagi masofa juda uzoq bo'lsa, signal kuchi pasayadi. Ulanish uzoq vaqt talab qilishi yoki o'rnatish muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin.
- Agar jihozlar Wi-Fi tarmog'iga ulana olmasa, muammo jihoz routerdan uzoqda joylashganligi sababli yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Wi-Fi signalini kuchaytirish uchun Wi-Fi retranslyator (signal kuchaytirgich) sotib oling.
- Internet ta'minotchisiga qarab, tarmoq ulanishida muammolar yuzaga kelishi mumkin.
- Uydagi tarmoq muhitiga qarab Wi-Fi ulanishi o'rnatilmasligi yoki uzilib qolishi mumkin.
- Simsiz signal uzatilishida muammo bo'lsa, jihoz ulana olmaydi. Jihozni o'chiring va yana urinib ko'rishdan avval taxminan bir daqiqa kuting.
- Agar simsiz routingingizda himoya devori yoniq bo'lsa, himoya devorini o'chiring yoki uni istisnolar ro'yxatiga kiriting.
- Simsiz tarmoq nomi (SSID) inglizcha harflar va raqamlar birikmasidan iborat bo'lishi lozim. (Maxsus belgilarni ishlatmang)
- Smartfonning foydalanuvchi interfeysi (UI) mobil operatsion tizim (OS) va ishlab chiqaruvchiga qarab farq qilishi mumkin.
- Agar routingning xavfsizlik protokoli **WEP** qilib belgilangan bo'lsa, tarmoqni sozlay olmasligingiz mumkin. Uni boshqa xavfsizlik protokoliga o'zgartiring (**WPA2** tavsiya etiladi) va jihozni yana ulang.
- Wi-Fi funksiyasini faolsizlantirish uchun **Wi-Fi** tugmasini 3 soniya bosib turing. Wi-Fi indikator o'chadi.
- Jihozni qaytadan ulash yoki boshqa foydalanuvchini qo'shish uchun vaqtincha o'chirib qo'yish uchun **Wi-Fi** tugmasini 3 soniya bosib turing. Moslamani ro'yxatga olish uchun

LG ThinQ ilovasini ishga tushiring va undagi ko'rsatmalarni bajaring.

Radio jihozning texnik xususiyatlari

Turi	Ishlatish chastotalari diapazoni	Chiqish quvvati (Maks.)
Simsiz LAN	2400 MGs - 2483,5 MGs	< 100 mVt
Bluetooth *1		

*1 Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud.

Mikrodastur versiyasining simsiz funksiyasi: V 1,0

Foydalanuvchiga xavfsiz bo'lishi uchun ushbu qurilma bilan inson o'rtasida kamida 20 sm oraliq qoldirilgan holda o'rnatilishi va ishlatilishi kerak.

Ochiq kodli dasturiy ta'minot eslatmasi

Manba kodini GPL, LGPL, MPL va boshqa ochiq manbali litsenziyalar ostida olish uchun bu mahsulotda mavjud bo'lgan manba kodini oshkor qilish majburiyatiga ega bo'lgan, shuningdek eslatib o'tilgan litsenziya shartlariga, mualliflik huquqi to'g'risidagi xabarnomalarga va boshqa tegishli hujjatlarga kirish uchun <https://opensource.lge.com> saytiga tashrif buyuring.

LG Electronics opensource@lge.com manziliga so'rov yuborilgan hollarda bunday yetkazib berish xarajatlarini (jumladan, media, jo'natish va qayta ishlash xarajatlari) qoplovchi to'lov evaziga CD-ROM orqali ham ochiq turdagi kodni yetkazib beradi.

Bu taklif bu mahsulotni oxirgi marta jo'natganimizdan keyin uch yil davomida bu ma'lumotni olgan har bir kishi uchun yaroqli hisoblanadi.

Smart diagnostika

Jihozingiz bilan muammolarni tashxislash va hal qilish uchun shu xususiyatdan foydalaning.

Izoh

- LGEga xos bo'lmagan sabablar tufayli Wi-Fi ning mavjud emasligi, Wi-Fi ning uzilishi, mahalliy ilovalar do'konining siyosati yoki ilovaning mavjud emasligi kabi tashqi omillar tufayli xizmat ishlamasligi mumkin.
- Bu xususiyat avvaldan xabar berilmasdan turib o'zgartirilishi va qayerda joylashganligingizga bog'liq ravishda boshqacha bo'lishi mumkin.

Muammolarni tashxislash uchun LG ThinQ ilovasidan foydalanish

Agar sizda Wi-Fi bilan jihozlangan qurilmangiz bilan bo'liq muammo bo'lsa, u nosozliklarni bartaraf qilish ma'lumotlarini **LG ThinQ** ilovasidan foydalanib smartfonga o'tkazishi mumkin.

- **LG ThinQ** ilovasini ishga tushiring va menyuda **Smart Diagnosis** xususiyatini tanlang. **LG ThinQ** ilovasida tashxislash uchun berilgan ko'rsatmalarni bajaring.

Muammolarni tashxislash uchun Audible Diagnosis xususiyatidan foydalanish


Ovozli diagnostika usulidan foydalanish uchun quyidagi ko'rsatmalarni bajaring.

- **LG ThinQ** ilovasini ishga tushiring va menyuda **Smart Diagnosis** xususiyatini tanlang. **LG ThinQ** ilovasida eshitish orqali tashxislash uchun berilgan ko'rsatmalarni bajaring.

1 Qulflash uchun **Lock** tugmasini bosing.

- Agar displey 5 daqiqadan ortiq vaqt qulflanib turgan bo'lsa, qulfni faolsizlantirishingiz va keyin uni qaytadan faollashtirishingiz kerak.

- ### 2 Sovitkich eshigini ochib, telefonni yuqori o'ngdagi karnay teshigiga yaqinlashtiring.



- ### 3 Telefoningizni ma'lumotlar o'tkazish yakunlangunicha karnayga ushlab turgan holda **Freezer** tugmasini uch soniya yoki ko'proq vaqt bosib turing.

- ### 4 Ma'lumotlarni o'tkazish yakunlangandan keyin tashxis ilovada ko'rsatiladi.

Izoh

- Eng yaxshi natijalarni olish uchun tovushlar o'tkazilayotganda telefonni qimirlatmang.

TEKNIK XIZMAT KO'RSATISH

Tozalash

Tozalash bo'yicha umumiy maslahatlar

- Muzlatish kamerasiga oziq-ovqat mahsulotlari joylashtirilgan holda qo'lda muzdan tushirish, jihozga texnik xizmat ko'rsatish yoki uni tozalashni bajarish oziq-ovqat mahsulotlari haroratining ko'tarilishiga va ularning yaroqlilik muddatlarining kamayishiga olib kelishi mumkin.
- Oziq-ovqat mahsulotlariga tegib turadigan barcha yuzalarni muntazam ravishda tozalab turing.
- Jihoz ichki tarafi va tashqarisini tozalayotganda uni dag'al cho'tka, tish pastasi yoki yonuvchan materiallar bilan artmang. Tarkibida yonuvchan moddalar bo'lgan vositalardan foydalanmang. Bu jihoz rangining o'chishi yoki shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin.
 - Yonuvchan moddalar: spirt (etanol, metanol, izopropil spirti, izobutil spirti va hk.), eritgich, oqartirgich, benzin, yonuvchan suyuqlik, abraziv va h.k.
- Tozalagandan so'ng elektr kabeli shikastlanmaganini tekshirib ko'ring.

Jihoz tashqi qismini tozalash

- Jihozning tashqarisidagi havo ventilyatsiya tirqishlarini changyutgich yordamida tozalaganda elektronika qismlariga zarar yetkazishi yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday statik elektr tokining oldini olish uchun elektr shnuri rozetkadan uzib qo'yilishi kerak. Qurilmaning ishonchli va tejamkor tarzda ishlashini saqlab qolish uchun orqa va yon tomondagi ventilyatsiya qoplamalarini muntazam tozalab turish tavsiya qilinadi.
- Jihozning tashqi tomonidagi havo ventilyatsiya tirqishlarini toza saqlang. Havo ventilyatsiya tirqishlarining to'silib qolishi yong'inga yoki jihozning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

- Jihozning tashqi qismi uchun toza gubka yoki yumshoq mato va iliq suvda eritilgan yumshoq kir yuvish vositasidan foydalaning. Dag'al yoki qattiq tozalash vositalaridan foydalanmang. Yumshoq latta bilan yaxshilab quriting. Zanglamaydigan po'latdan qilingan eshiklarni tozalaganda zararlangan matolardan foydalanmang. Maxsus matodan foydalaning va kristall bilan bir yo'nalishda arting. Bu yuzaning dog'lanishi va tiralishini kamaytirishga yordam beradi.

Jihoz ichki qismini tozalash


- Tan jarohati yoki jihoz buzilishining oldini olish uchun tokcha yoki tortmani olib tashlashdan avval u tokcha yoki tortmadan barcha oziq-ovqat mahsulotlarini olib tashlang. Aks holda joylashtirilgan mahsulotlarning og'irligi tufayli jarohat olish mumkin.
- Tokcha va tortmalarni oling va ularni suv va yumshoq kir yuvish vositasi bilan tozalang, shundan so'ng ularni o'z joyiga qo'yishdan oldin yaxshilab quriting.
- Eshik qistirmalari va eshik zichlagichlarini muntazam ravishda suv va yumshoq kir yuvish vositasi bilan artib oling.
- Eshik savatchasiga oqqan narsalar va dog'lar tozalanishi zarur, chunki ular savatchaning saqlash xususiyatiga zarar yetkazishi va hatto, buzishi ham mumkin.
- Idish yuvish mashinasida yoki issiq suvda polkalar, eshik savatchalari yoki konteynerlarni tozalamang. Bu qismlar issiqlik tufayli deformatsiyalanishi va shisha darz ketishi mumkin.
- Jihozdagi avtomatik muzdan eritish tizimi normal ishlash sharoitida bo'lma ichida muz to'planmasligini ta'minlaydi. Foydalanuvchilar uni qo'lda muzdan eritishlariga hojat yo'q

Konteyner qopqog'ini tozalash

Kondensator qoplamasi va ventilyatorlarni tozalash uchun chiyotkali changyutgichdan

foydalaning. Kondensator g'altagi sohasi panel qoplamasini chiqarib olmang.

Ish samaradorligini saqlab qolish uchun buni har 12 oyda bir marta bajarishni qat'iy tavsiya qilamiz. Buni qilmaslik sovutishning yo'qolishiga, yuqori energiya sarfiga va kompressorning haddan tashqari qizib ketishiga olib kelishi mumkin.



Suv filtri

Suv filtrini almashtirishdan avval

! OGOHLANTIRISH

- Bu mahsulotni o'rnatish vaqtida yosh bolalarga kichkina qismlarni o'ynashlariga ruxsat bermang.
- Mikrobiologik jihatdan xavfsiz bo'lmagan yoki sifati ma'lum bo'lmagan suvdan tizimdan avval yoki keyin mos darajada dezinfektsiya qilmasdan turib foydalanmang. Sertifikatga ega bo'lgan pufakchalarni kamaytirish tizimlaridan tarkibida filtrlanuvchi pufakchalar bo'lgan dezinfektsiyalangan suvda foydalanish mumkin.

! DIQQAT

- Suv bosimi 827 kPa dan ortiq bo'lgan hollarda o'rnatmang. Agar suv bosimi 827 kPa dan ortiq bo'lsa, bosimli cheklovchi klapan o'rnatishingiz kerak. Suv bosimini qanday tekshirishni bilmasangiz, professional santexnikka murojaat qiling.
- Bolg'a holatlari yuz berishi mumkin bo'lgan hollarda o'rnatmang. Agar bolg'a holatlari mavjud bo'lsa, suv bolg'asi ushlagichini o'rnatishingiz kerak. Bu holatni qanday

tekshirishni bilmasangiz, professional santexnikka murojaat qiling.

- Issiq suv ta'minot liniyalariga o'rnatmang. Bu filtr tizimining maksimal ishlash suv harorati 37,8 °C ni tashkil qiladi.
- Filtrni muzlab qolishdan himoya qiling. Harorat 4,4 °C dan pastga tushgan hollarda filtrni quriting.
- Chiqitga chiqariluvchi filtr kartriji nominal sig'imida har 6 oyda yoki suv oqimida sezilarli pasayish kuzatilganida almashtirilishi KERAK.
- Suv tizimiga suvning orqaga oqishining oldini olish tizimi o'rnatilgan hollarda issiqlikdan kengayish tufayli bosimni boshqarish qurilmasi o'rnatilishi kerak.
- Barcha trubkalar va fittinglarning mahkam ekanligi va ulardan suv oqmasligiga ishonch hosil qiling.

Izoh

- Sinovdan o'tkazish laboratoriya sharoitlarida o'tkazilganligi holda haqiqatda ishlashi farq qilishi mumkin.
- Ishlab chiqaruvchining mahsulotni o'rnatish, unga texnik xizmat ko'rsatish va filtrni almashtirish bo'yicha tavsiyalarining ko'rsatilgani kabi bajarilishi juda muhimdir.

Suv filtrini almashtirish (Vertikal o'rnatiluvchi model)


*1 Bu xususiyat faqat ayrim modellarda mavjud.

Suv filtri har 6 oyda yoki indikator yonganida yoki suv taqsimlagichining chiqarishi kamayganida almashtirilishi kerak.


- Almashtirgani yangi filtr sotib olish uchun:
 - Almashtirish kartrijidan foydalaning: ADQ736939**
 - Mahalliy dilerga yoki distribyutorga tashrif buyuring yoki LG Electronics Mijozlarga xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling. Qo'shimcha yordam olish uchun lg.com manzilidagi veb-saytimizga tashrif buyuring

Rezballi gayka turi*¹


- 1 Burama mix qopqog'ini bo'shating.




- 2 Rangli chiziq ❶ ko'rinadigan bo'lgunicha trubani suv filtri qopqog'idan tashqariga torting.



- 3 Trubani suv filtri qopqog'iga surib kirgizing, uchining to'liq germetikligiga isonch hosil qiling.



- 4 Suv filtridagi rangli chiziq ko'rinmay qolguncha vint qopqog'ini qotiring.




- 5 **Water Filter** tugmasini bosib, uch soniya davomida ushlab turing. Bu **Replacement Filter** ikonkasini qayta o'rnatadi. Yangi suv filtri faollashtirildi.


- 6 Kirib qolgan havo va ifloslovchi narsalarni tizimdan chiqarib tashlash uchun taxminan 5 daqiqa suv chiqaring.

Surib solinuvchi ulagich turi*¹


- 1 Burama mix qopqog'ini chiqarib oling.




- 2 Trubani suv filtridan tortib chiqaring.



- 3 Trubani suv filtriga surib kirgizing, uchining to'liq germetikligiga isonch hosil qiling.



- 4 Suv filtridagi rangli chiziq ko'rinmay qolguncha vint qopqog'ini kiriting.



- 5 **Water Filter** tugmasini bosib, uch soniya davomida ushlab turing. Bu **Replacement Filter** ikonkasini qayta o'rnatadi. Yangi suv filtri faollashtirildi.

- 6** Kirib qolgan havo va ifloslovchi narsalarni tizimdan chiqarib tashlash uchun taxminan 5 daqiqa suv chiqaring.

⚠ DIQQAT

- Talab qilingan hollarda filtrni almashtirmaslik yoki LG tomonidan ruxsat berilmagan suv filtrlaridan foydalanish filtr kartrijidan suvning oqib ketishiga va natijada mahsulotning zararlanishiga olib kelishi mumkin.

Qo'llash bo'yicha yo'riqnomalar/Suv ta'minoti parametrlari


- Xizmat oqimi: 1,9 l/daq
- Suv ta'minoti: Kommunal yoki xususiy quduq – Ichimlik suvi
- Suv bosimi: 138 - 827 kPa
- Suv harorati: 0,6 - 37,8 °C
- Sig'imi: 1892 litr

Dezodorant


Dezodoratorni qayta ishlatish

Dezodoratordan hidlarni olib tashlagach uni qayta ishlatishingiz mumkin.


- 1** Sovutgich tortmasini tortib oling.



- 2** Dezodoratoridagi vintni burang.




- 3** Dezodoratoridagi ilgichlarga bosong va uni chiqarib oling.



- 4** Soch quritgich yordamida yoki o'tobda qoldirgan holda dezodoratorni quritish.

- Dezodoratorning xushbo'ylashtirish samaradorligini oshirish uchun tabiiy palma yog'ochidan tayyorlangan kukun ishlatiladi. To'kilsa ham zarari yo'q. Sochiq yoki mato bilan artib yuboring.



⚠ DIQQAT

- Dezodoratorni suv bilan yuva ko'rmang.

NOSOZLIKLARNI BARTARAF ETISH

Servis markaziga qo'ng'iroq qilishdan avval

Muz va suv

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sababi va yechimi
Muz tayyorlagich muz chiqarmayapti yoki juda oz miqdorda muz chiqaryapti.	Jihozni yaqinda o'rnatdingizmi? - Odatda, jihoz o'rnatilgandan so'ng, taxminan 48 soat o'tganidan keyin muz tayyorlagich muz ishlab chiqaradi. - Agar sovuq bo'lmisidagi harorat juda sovuq bo'lsa, suv filtri muzlab qolishi va muz tayyorlagichga bo'lgan suv oqishini to'sib qo'yishi mumkin.
	Jihozga suv quvurini uladingizmi yoki suv ta'minoti klapani ochdingizmi? Jihozga suv quvurini ulang va suv ta'minoti klapanini to'liq oching.
	Suvga ulangan rezina ichak bukilib qolganmi? Suvga ulangan rezina ichak bukilib qolgan bo'lsa, suv oqimi siqilib qolgan bo'lishi mumkin.
	Yaqinda ko'p miqdordagi muz olgan edingizmi? Avtomatik muz tayyorlagich ko'proq muz ishlab chiqarishi uchun taxminan 24 soat vaqt ketadi. Iltimos, kuting.
	Muz tayyorlagich tugmasini yoki boshqaruv panelidagi avtomatik muz tayyorlagich tugmasini ON (yoqish) holatiga o'tkazdingizmi? Avtomatik muz tayyorlagich panelidagi I ni bosing yoki boshqaruv panelidagi avtomatik muz tayyorlagich tugmasini ON qilib sozlang. (Qanday ishlatish bo'yicha batafsil ma'lumot uchun LG Electronics kompaniyasi saytiga tashrif buyuring yoki smart qurilmadan foydalaning.)
	Muzlatgich bo'lmisidagi harorat juda yuqori qilib belgilanganmi? Agar harorat juda issiq qilib belgilangan bo'lsa, muz sekin tayyor bo'ladi yoki umuman chiqmaydi. Avtomatik muz tayyorlagichning me'yoriy ishlashi uchun muzlatgich haroratini -18°C qilib belgilang.
	Jihoz eshigini tez-tez ochganmidingiz? Agar jihoz eshigini tez-tez ochadigan bo'lsangiz, sovuq havo chiqib ketadi va bu muz ishlab chiqarish jarayonini pasaytiradi. Qurilma eshigini ko'p ochib yopmang.
	Jihoz eshigi jips yopilganmi? Agar jihoz eshigi jips yopilmasa, muzxona bo'lmisidagi harorat oshadi va muz ishlab chiqarish tezligi pasayadi. Jihoz eshigini jips yoping.
Muz taqsimlanmayapti.	Muzning chiqayotgan tovushini eshita olmayapsizmi? Boshqaruv panelida muzni taqsimlash uchun kublangan muz rejimlari va maydalangan muzni navbati bilan tanlang.

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sababi va yechimi
Muz taqsimlanmayapti.	Muz yo'li to'silib qolganmi? (Muz o'tish yo'lini muz chelagini ajratib olish orqali ko'rishingiz mumkin.) Agar muz o'tish yo'li to'silib qolgan bo'lsa, muz to'g'ri taqsimlanmasligi mumkin. Muntazam ravishda muzni tekshirib va muz yo'lini tozalab turing.
Suv chiqmayapti.	Ta'minot klapani o'chirib qo'yilgan. (Faqat tik joylashuvchi modellar uchun) - Suv ta'minoti klapanini oching. - Sovutgich bo'lmasidagi haroratning juda sovuq ekanligini tekshiring, chunki suv filtrining muzlab qolishi va muz tayyorlagichga bo'lgan suv oqishini to'sib qo'yishi mumkin.
	Balki suv baki bo'sh. (Faqat tik joylashtirilmaydigan modellar uchun) Suv bakini to'ldiring.
	Suv ta'minoti klapani yopiqmi? (Faqat tik joylashuvchi modellar uchun) Suv ta'minoti klapanini oching.
	Siz filtrlanmaydigan suvdan foydalanasizmi? Filtrlanmagan suv tarkibida ko'p miqdordagi turli metal zarralari yoki yot moddalar bo'ladi, shu sababli, xizmat muddatidan qat'i nazar, avvalroq bu filtr ifloslangan bo'lishi mumkin.
Suvning ta'mi g'alati.	Suvning ta'mi avvalgi suv tozalagichdan olingan suvning ta'midan farq qilmoqdam? Tozalangan suv yoki sovuq suv uzoq muddat davomida foydalanilganmi?
	Filtrni o'rnatib almashtirganingizga ko'p vaqt bo'ldimi? Agar xizmat muddati o'tgan filtrdan foydalanilayotgan bo'lsa, uning tozalash unumdorligi pasayadi. Filtr almashtirishning belgilangan muddatiga muvofiq filtrni almashtirish tavsiya qilinadi.
	Filtr o'rnatgan paytingizning ilk bosqichlarida uni yaxshilab tozalaganmisiz? Siz ilk marta filtr o'rnatasangiz yoki almashtirsangiz, uning ichidagi havoni chiqarishingiz va faollashtirilgan ko'mir qoldiqlarini olib tashlashingiz zarur. Suv chiqarish dastagini bosgan holda suv chiqaruvchi uskunadan 5 litrga yaqin tozalangan suvni tushirib, chiqarib yuborgandan so'ng jihozdan foydalaning. (Faollashtirilgan ko'mir inson uchun zararsizdir)
	Tozalangan suv yoki sovuq suv uzoq muddat davomida foydalanilganmi? Eskirgan suvning ta'mi bakteriyalar ko'payishi sababli o'zgarishi mumkin. Suv chiqaruvchi uskunadan 5 litrga yaqin suvni (taxminan uch daqiqa) tushirib, chiqarib yuborgandan so'ng jihozdan foydalaning.

Sovutish

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sababi va yechimi
Jihoz sovitmayapti yoki muzlatmayapti.	Elektr tokida uzilish bormi? Boshqa jihozlarda tok bor-yo'qligini tekshiring.
	Jihoz rozetkadan uzib qo'yilgan. Elektr kabeli sanchqisini rozetkaga to'g'ri ulang.
	Uyingizdagi saqlagich kuyib qolgan yoki zanjir uzgich ishga tushirilgan bo'lishi mumkin. Yoki jihoz GFCI (Yerdagi qisqa tutashuv uzgichi) rozetkasiga ulangan va razetkadagi zanjir uzgich ishga tushirilgan. - Asosiy elektr qutisini tekshiring va saqlagichni almashtiring yoki o'chirgichni asliga qaytaring. Saqlagich sig'imini oshirmang. Muammo zanjirning ortiqcha yuklanishida bo'lsa, uni malakali elektrik orqali tuzattiring. - GFCI dagi zanjir uzgichni qayta o'rnating. Agar muammoni bartaraf qilib bo'lmasa, elektrikka murojaat qiling.
Jihoz yaxshi sovitmayapti yoki muzlatmayapti.	Sovutgich yoki muzlatgich harorati uning eng yuqori haroratiga sozlanganmi? Sovutgich yoki muzlatgich haroratini sovuqroq darajaga o'rnating.
	Jihoz to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri tushadigan joydami yoki plita yoki isitkich kabi issiqlik chiqaruvchi buyum yaqinidami? Jihoz o'rnatilgan joyni tekshiring va uni issiqlik chiqaruvchi buyumlardan uzoqroqqa qayta o'rnating.
	Issiq ovqatni sovitmay jihozga qo'ydingizmi? Issiq ovqatni sovitgich yoki muzlatgich bo'lmasiga qo'yishdan oldin uni soviting.
	Jihoz ichiga haddan ziyod ko'p oziq-ovqat mahsuloti soldingizmi? Oziq-ovqat mahsulotlari orasida tegishli bo'sh joy bo'lishini ta'minlang.
	Jihoz eshiklari jips yopilganmi? Eshikni jips qilib yoping va jihoz ichidagi oziq-ovqat mahsuloti eshik yopilishiga xalaqit bermayotganiga ishonch hosil qiling.
	Jihoz atrofida yetarlicha bo'sh joy bormi? Jihozni uning atrofida yetarlicha bo'sh joy bo'ladigan qilib o'rnating.
Jihozdan yoqimsiz hid kelmoqda.	Sovutgich yoki muzlatgich harorati uning eng yuqori haroratiga sozlanganmi? Sovutgich yoki muzlatgich haroratini sovuqroq darajaga o'rnating.
	Hidi o'tkir bo'lgan ovqat qo'ydingizmi? Hidi o'tkir ovqatlarni yopiq idishlarda saqlang.

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sababi va yechimi
Jihozdan yoqimsiz hid kelmoqda.	Tortmadagi sabzavot yoki meva aynib qolishi mumkin. Chirigan sabzavotlarni tashlab yuboring va sabzavotlar tortmasini tozalang. Sabzavotlar tortmasida sabzavotlarni uzoq muddat saqlamang.

Kondensatsiyalanish va muzlash

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sababi va yechimi
Jihoz ichida yoki sabzavotlar tortmasi qopqog'ida suv to'planib qolgan.	Issiq ovqatni sovitmay jihozga qo'ydingizmi? Issiq ovqatni sovutgich yoki muzlatgich ichiga qo'yishdan oldin uni soviting.
	Jihoz eshigini ochiq qoldirdingizmi? Garchi jihoz eshigi yopilishi bilan tez orada bu to'planib qolgan suv yo'qolib ketsa-da, u suvni quruq latta bilan artib tashlashingiz ham mumkin.
	Jihoz eshigini juda ko'p ochib yopdingizmi? Bu suv kondensati tashqaridagi harorat bilan farq sabab ham yuzaga kelishi mumkin. Namlikni quruq latta bilan artib tashlang.
	Siz issiq yoki nam ovqatning og'zini yopmay jihoz ichiga qo'ydingizmi? Oziq-ovqat mahsulotlarini qopqoqli yoki jips yopilgan idishlarda saqlang.
Muzlatgich bo'lmasida muzlar paydo bo'ldi.	Eshiklar yaxshi yopilmagan bo'lishi mumkin. Jihoz ichidagi biror oziq-ovqat mahsuloti eshik yopilishiga xalaqit qilmayotganligini tekshiring va eshiklar jips yopilganiga ishonch hosil qiling.
	Issiq ovqatni sovitmay jihozga qo'ydingizmi? Issiq ovqatni sovutgich yoki muzlatgich bo'lmasiga qo'yishdan oldin uni soviting.
	Muzlatgich bo'lmasiga kiradigan havoning kirish yoki chiqish yo'li to'silganmi? Havoning kirish yoki chiqish joyi yopilib qolmaganiga ishonch hosil qiling, chunki jihoz ichida havo aylanishi lozim.
	Muzlatgich bo'lmasiga haddan ziyod mahsulotlar qo'yilganmi? Mahsulotlari orasida tegishlicha bo'sh joy bo'lishini ta'minlang.
Jihozning ichida yoki tashqarisida muz yo suv kondensati hosil bo'ldi.	Jihoz eshigini tez-tez ochib yopdingizmi yoki jihoz eshigi nobop yopilganmi? Agar tashqaridagi havo jihoz ichiga kiradigan bo'lsa muz yo suv kondensati hosil bo'lishi mumkin.

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sababi va yechimi
Jihozning ichida yoki tashqarisida muz yo suv kondensati hosil bo'ldi.	Jihoz o'rnatilgan muhitning havo namligi yuqorimi? Agar jihoz o'rnatilgan joyda havo namligi o'ta yuqori bo'lsa yoki yomg'ir sabab havo namligi yuqori bo'lgan kun bo'lsa, jihoz tashqi tarafida suv kondensati paydo bo'lishi mumkin. Har qanday namlikni quruq latta bilan artib tashlang.
Jihozning yon tarafi yoki old qismi qiziganmi?	Eshik atrofida kondensat suv hosil bo'lishini kamaytirish maqsadida jihozning bu joylarida suv kondensatiga qarshi naychalar o'rnatilgan. Suv kondensatining oldini olishga mo'ljallangan, o'zidan issiq ajratuvchi naychalar jihozning old eshigida va yon tomonlariga o'rnatilgan. Asosan jihozni o'rnatishingiz bilanoq yoki yoz paytida ushbu issiqlikni sezishingiz mumkin. Bu holat muammoni anglatmaydi va me'yoriy holat hisoblanganligi sabab, xotirjam bo'ling.
Jihozning ichida yoki tashqarisida suv paydo bo'ldi.	Jihoz atrofida biror joydan suv oqyaptimi? Oshxona chanog'i yoki boshqa joydan suv oqmayotganini tekshiring.
	Jihoz ostida suv bormi? Bu suvning erigan oziq-ovqat mahsulotidan yoki singan yo tushib ketgan idishdan oqib tushgan yoki tushmaganini tekshiring.

Qismlar va xususiyatlar

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sababi va yechimi
Jihoz eshigi jips yopilmayapti.	Jihoz oldinga egilib turibdimi? Old tomonini biroz ko'tarish uchun oldingi oyoqchalarni sozlang.
	Tokchalar to'g'ri o'rnatilganmi? Zarurat tug'lsa, tokchalarni qayta joylashtiring.
	Eshikni ortiqcha kuch bilan yopdingizmi? Eshikni ortiqcha kuch ishlatib yoki shiddat bilan yopsangiz, u yopilishidan oldin qiya ochiq qolishi mumkin. Eshikni qarsillatib yopmasligingizga ishonch hosil qiling. Eshikni ehtiyotlik bilan yoping.
Jihoz eshigini ochish qiyin bo'lib qoldi.	Siz eshikni yopgan zahoti ochdingizmi? Agar jihoz eshigini yopganingiz zahoti bir daqiqa davomida yana ochsangiz, jihoz ichidagi bosim sabab ochishga qiyinalishingiz mumkin. Jihoz ichidagi bosim barqarorlashgandan so'ng, bir necha daqiqada eshikni yana ochib ko'ring.
Jihozning ichidagi chiroq yonmayapti.	Chiroq xatoligi Eshikni yoping va qayta oching. Agar chiroq yonmasa, LG Electronics mijozlarga ma'lumotlar berish markaziga murojaat qiling. Chiroqni chiqarib olishga urinmang.

Shovqinlar

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sababi va yechimi
Jihoz shovqin bilan ishlamoqda va noodatiy ovozlar chiqarmoqda.	Jihoz yumshoq polga o'rnatilganmi yoki notekis qo'yilganmi? Jihozni qattiq va tekis polga o'rning.
	Jihozning orqa tarafi devorga tegib turibdimi? Jihozni uning atrofida yetarlicha bo'sh joy bo'ladigan qilib o'rning.
	Jihoz orqa tarafiga turli buyumlar tashlanganmi? Jihozning orqa tarafiga tashlab yuborilgan buyumlarni olib tashlang.
	Jihoz ustida biror buyum bormi? Jihoz ustida turgan buyum olib tashlang.
Chiqiraydigan ovoz	Avtomatik muzdan tushirish davri boshlansa yoki tugasa muzdan tushirishni boshqarish tizimi chiqirlagan ovoz chiqaradi. Termostatni boshqarish tizimi (yoki ba'zi modellarda jihoz boshqaruvi tizimi) ham uing ishlash davri yonganda yoki o'chganda chiqirlagan ovoz chiqaradi. Me'yorda ishlamoqda
Guldiragan ovoz	Guldiragan shovqin jihozning suyuqlik oquvchi qismlaridan, orqa tomonidagi suv oqadigan naychadan (faqat tik joylashuvchi modellar uchun) yoki jihoz atrofidagi buyumlardan kelayotgan bo'lishi mumkin. Me'yorda ishlamoqda
	Jihoz polda tekis joylashmagan. Pol yumshoq yoki notekis yoki muvozanatlovchi oyoqlari sozlanishi zarur. "Eshikni muvozanatlash" bo'limini qarang.
	Ishlash davomida jihoz bilan kompressor biroz siljigan. Me'yorda ishlamoqda Agar kompressor uch daqiqadan keyin ham guldirashdan to'xtamasa, jihozni elektr ta'minotidan uzing va qayta ulang.
Vishillagan ovoz	Bug'latuvchi parrak dvigateli sovutgich va muzlatgich bo'lmalari bo'ylab havoni aylantirmoqda. Me'yorda ishlamoqda
	Havo kondensator parragi yordamida kondensatordan siqib itariladi. Me'yorda ishlamoqda
Shildiragan ovoz	Jihozning sovitish tizimida suyuqlik oqmoqda. Me'yorda ishlamoqda
Qalquvchi ovoz	Harorat o'zgarganligi sababli ichki devorlarning qisqarishi yoki kengayishi. Me'yorda ishlamoqda

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sababi va yechimi
Zirillash	Agar jihozning yon yoki orqa tarafi javon yo devorga tegib turgan bo'lsa, me'yoriy zirillashlar ham turli tovushlar chiqarishi mumkin. Bu shovqinni yo'qotish uchun jihozning yon yoki orqa tarafi devor yoki javonga tegib turmaganiga ishonch hosil qiling.
Suv idishidan shovqin tovushi. (Faqat suv o'tkazmaydigan modellar)	Agar muz tayyorlagich yoqilgan bo'lsa va suv idishi bo'sh bo'lsa, siz suv idishidan klapaning shovqinli tovushini eshitilishi mumkin. Suv bakini to'ldiring yoki muz tayyorlagichni o'chirib qo'ying.

Wi-Fi

Alomatlari	Mumkin bo'lgan sababi va yechimi
Uy jihozingiz va smartfoningiz Wi-Fi tarmoqqa ulanmagan.	Siz ulanishga harakat qilayotgan Wi-Fi paroli xato. Smartfoningizga ulangan Wi-Fi tarmoqni toping va uni o'chirib yuboring, so'ng jihozingizni LG ThinQ ilovasida ro'yxatdan o'tkazing.
	Smartfoningizda Mobil internet yoqilgan. Smartfoningizda Mobil internetni o'chiring va Wi-Fi tarmoqdan foydalangan holda jihozingizni ro'yxatdan o'tkazing.
	Simsiz tarmoq nomi (SSID) xato o'rnatilgan. Simsiz tarmoq nomi (SSID) inglizcha harflar va raqamlar birikmasidan iborat bo'lishi lozim. (Maxsus belgilarni ishlatmang)
	Router chastotasi 2,4 GGs emas. Router faqat 2,4 GGs chastotada ishlaydi. Simsiz routerni 2,4 GGs chastotaga sozlang va jihozingizni simsiz routerga ulang. Router chastotasini tekshirish uchun Internet xizmati provayderingizga yoki routingingizni ishlab chiqargan kompaniyaga murojaat qiling.
	Jihoz va simsiz router orasidagi masofa juda uzoq. Agar jihoz va simsiz router orasidagi masofa juda uzoq bo'lsa, signal kuchsiz bo'lishi va ulanish to'g'ri yo'lga qo'yilmasligi mumkin. Routingingizni jihozga yaqinroq joyga o'rnatish.

Izoh

Izoh



Информация	Вы можете увидеть месяц и год изготовления на этикетке внутри холодильника.
Мәлімет	Дайындалған күні тоңазытқыштың ішінде орналасқан жапсырмада көрсетілген.